

ISSN: 2181-3310

MUTAFAKKIR

Scientific Journal / Научный журнал / Илмий журнал

№38. Noyabr, 2025



Bosh Muharrir:
Shohinur Mirzayev

Jamoatchilik kengashi:
Baxtinur Xudanov
Akbar Elmurodov
Shuhrat Ziyadullayev

Tahrir hay'ati
Muxtor Xudoyqulov
Ulug'bek Vohidov
Latofat
Toshmuhammedova

**ALISHER NAVOIY
NOMIDAGI O'ZBEKISTON
MILLIY KUTUBXONASI**

Kitob va turkum
nashrlarga ISBN va ISSN
raqamlarni biriktirish
to'g'risida

MA'LUMOTNOMA

Turkum nashrlarning
chiqish ma'lumotlarini GOST
7.4-95 «Nashrlar. Chiqish
ma'lumotlari» hamda GOST
7.56-2002 «Xalqaro standart
turkum raqami» davlatlararo
standartlar talablari asosida
bo'lishini to'liq ta'minlash
maqsadida, Alisher Navoiy
nomidagi O'zbekiston Milliy
kutubxonasi va «Mutafakkir»
1ta 2022 yil 11-apreldagi
№ ISSN-C-35583 sonli
hisob-kitob shartnoma va
2022 yil 19-aprel yildagi №
ISSN-I-35583 schet-fakturaga
asosan turkum nashrlarini
ISSN bilan belgilash uchun
quyidagi raqamni taqdim
etadi:

Turkum nashrning nomi:
Мутафаккир
ISSN raqam: 2181-3310
Turkum nashrlarning turi:
электрон нашр

Ushbu jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining ilovasida mavjud bo'lgan xalqaro indeksatsiya **index copernicus** bazasiga kiritilgan. OAK ilmiy nashrlarda chop eilgan maqola sifatida qabul qilinadi.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxati

¹ Maqola chop etilgan paytda xalqaro miqyosda faoliyat kursatadigan quyidagi yirik nashriyotlar e'ki ma'lumotlar bazasi asosida «импакт-фактор»ga ega bulgan ilmiy jurnallarda nashr etilgan maqolalar mazkur Ruyxat tarkibiga kiritilgan ilmiy jurnallarda chop etilgan ilmiy maqolalar sifatida qabul qilinadi: (1) Web of Science (Web of Knowledge), (2) Journal Impact Factor, (3) Scopus, (4) Journal Citation Reports, (5) Global Impact Factor, (6) International Impact Factor Services, (7) Agris, (8) Chemical Abstracts CAS, (9) GeoRef, (10) PubMed, (11) Springer, (12) Index Copernicus, (13) Bielefeld Academic Search Engine, (14) ResearchBib, (15) Directory of Research Journals Indexing, (16) Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor, (17) Open Academic Journals Index, (18) Ulrich's Periodicals Directory, (19) Scientific Indexing Services, (20) General Impact Factor, (21) InfoBase Index, (22) International Society for Research Activity, (23) Scientific Journal Impact Factor, (24) Scientific Research Publishing Inc, (25) Directory of Open Access Journals, (26) Academic Journals Database, (27) Academic One File, (28) Advanced Science Index, (29) Anthropological Index Online, (30) Anthropological Literature, (31) Anthropology Plus, (32) Asian Education Index, (33) Bibliography of Asian Studies, (34) Compendex, (35) CrossRef, (36) HINARI, (37) Hindawi, (38) Libraries Resource Directory, (39) Impact Factor Search, (40) ResearchGate, (41) SCImago, (42) Scisearch, (43. z/x) Universal Impact Factor.

Shuningdek, jahonning ikki yuzta eng yaxshi oliy ta'lim muassasasi ruyxatidagi oliy ta'lim muassasalari tomonidan chop etilgan ilmiy ishlar va maqolalar tuplamida nashr etilgan ilmiy maqola (material)lar mazkur ruyxatga kiritilgan ilmiy nashrlarda chop etilgan maqolalar sifatida qabul qilinadi.

INSON RESURLARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR MUHIM OMIL SIFATIDA

(Bojxona organlari misolida)

“Insonni boshqarishda g‘azab emas, ilm va hikmat ustun bo‘lmog‘i kerak.”

Ibn Sino

Bojxona qo‘mitasi Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish boshqarmasining, Inson resurslarini rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i, podpolkovnik M.Abduvoxidov

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalarining ahamiyati, ularning mohiyati hamda bojxona organlari misolida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar va ularning natijalari tahlil qilingan. Shuningdek, bojxona organlari xizmatida inson resurslarini boshqarishni raqamlashtirish orqali xizmat faoliyati samaradorligini oshirishga oid ilmiy taklif va tavsiyalar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Inson qadri, inson kapitali, inson resurslari, raqamlashtirish, HR kompetensiyalari, ijtimoiy omillar, psixologik omillar, malaka oshirish, faoliyat samaradorligi.

Аннотация: В данной статье проанализированы значение цифровых технологий в управлении человеческими ресурсами, их сущность, а также исследования, проводимые на примере таможенных органов, и полученные результаты. Кроме того, представлены научные предложения и рекомендации, направленные на повышение эффективности служебной деятельности таможенных органов за счёт цифровизации управления человеческими ресурсами.

Ключевые слова: ценность человека, человеческий капитал, человеческие ресурсы, цифровизация, HR-компетенции, социальные факторы, психологические факторы, повышение квалификации, эффективность деятельности.

Annotation: This article analyzes the importance and essence of digital technologies in human resource management, as well as the research conducted using customs authorities as an example and the results obtained. In addition, it presents scientific proposals and recommendations aimed at improving the efficiency of service activities in customs authorities through the digitalization of human resource management.

Keywords: human value, human capital, human resources, digitalization, HR competencies, social factors, psychological factors, professional development, performance efficiency.

Kirish

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar zaminida “Inson qadri” tamoyiliga asoslangan jamiyat barpo etish masalalari muhim bo‘lib kelmoqda. Bu borada muhtaram Prezidentimiz tomonidan bir qator huquqiy qarorlar chiqarilgan bo‘lib eng avvalo yangi tahrirlangan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaning 13-moddasida “Demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson

qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanadi” degan normalar bilan mustahkamlangan [1].

Jumladan, “Inson qadri” - bu insonning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat sifatida tushunilishi tamoyili. Bu tamoyil insonni jamiyat va davlat uchun markaziy o‘rinda qo‘yishni ko‘zda tutadi: inson – faqat ijtimoiy subyekt emas, balki davlat faoliyatining bosh mezoni ekanligi ta’kidlangan. Bu esa, O‘zbekistonning inson huquqlari va qadr-qimmatini konstitutsiyaviy darajada ustuvor qadriyat sifatida belgilashi bilan, xalqaro inson huquqlari standartlariga yaqinlashganidan dalolatdir.

Ta’kidlash joizki, so‘nggi yillarda mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirish, aholining intellektual koeffitsientini oshirish, yoshlarni zamonaviy kasblarga o‘qitish, ularning salohiyati oshirishga qaratilgan islohotlar jadallik bilan olib borilmoqda, mazkur masalada Yangi taxrirdagi Konstitutsiyamizga “*Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar*” bobi kiritilgan bo‘lib, aynan 43-moddada “*Davlat fuqarolarning kasbiy tayyorgarligini va qayta tayyorlashini tashkil etadi hamda rag‘batlantirishi*” nazarda tutilgan.

Ijtimoiy davlat tamoyili asosida davlat insonning farovonligiga, uning ijtimoiy manfaatlariga xizmat qilishi kerakligi belgilangan.

Bu borada bojxona organlari tizimida ham bir qator islohotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, so‘ngi yillarda inson resurslarini boshqarishda ularning ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, munosib ish sharoitlarini yaratish va kadrlar salohiyatini oshirish hamda tizim faoliyatini raqamlashtirish orqali xodimlar xizmat faoliyati samaradorligini oshirishga oid muhim vazifalar amalga oshirilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Hozirgi global raqamlashuv davrida inson resurslarini boshqarish (*HRM - Human Resource Management*) sohasi ham tubdan o‘zgarib bormoqda. Korxonalar raqobatbardosh bo‘lishi uchun faqat moliyaviy yoki texnologik imkoniyatlar emas, balki samarali tashkil etilgan inson kapitali ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda raqamli texnologiyalar inson resurslari (*HR- Human Resource*) faoliyatining asosiy dvigatellaridan biriga aylandi.

Dunyo olimlari tomonidan inson resurslari ya’ni insonlarni hoh jamiyatda bo‘lsin, hoh ma’lum korxona tashkilotda bo‘lsin ularni boshqarishda bir qator ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik omillar mavjudligiga oid bir qator fikr va mulohazalari mavjud (1-jadval).

1-jadval

Mavzuga oid buyuk mutafakkir olimlarning qarashlari

T/R	Mutafakkirlar	Ilmiy va dunyoviy qarashlari
1	Abu Nasr Forobiy (870–950)	«Eng go‘zal shahar - bir-biriga yaxshilik tilaydigan va bir maqsadga intilgan odamlar jamiyatidir.» “Rahbar xalqning aqlli, odobli va adolatli bo‘lishiga xizmat qilmog‘i lozim.” Forobiyning “ <i>Fozillar shahri</i> ” asarida <i>ideal jamiyat va rahbar fazilatlar</i> keng ochib berilgan

2	Alisher Navoiy (1441–1501)	“Rahbarning adolati - xalqning osoyishtaligidir.” “Insonga yaxshi so‘z bilan ta’sir etsa bo‘ladi, zo‘rluk bilan emas.” Navoiy adolat, <i>insof va insonparvarlikni</i> davlatchilik va boshqaruvning asosi deb bilgan.
3	Жан-Жак Руссо (1712–1778)	«Odamlar tabiatan erkin, lekin jamiyat qoidalari ularni boshqaradi.» Russo inson tabiati va boshqaruv munosabatlarida <i>adolat va erkinlikni</i> asosiy qadriyat deb bilgan.
4	Ibroxim Linkoln (1809–1865)	“Eng yaxshi rahbar xalqning hissiyotlarini tushuna oladi va ular bilan hamdard bo‘ladi.” U <i>insonni tushunish</i> - boshqaruvning asosi ekanini ta’kidlagan.
5	Piter Druker (1909–2005) zamonaviy menejment otasi	“Menejment - ishlarni to‘g‘ri qilish; liderlik -to‘g‘ri ishlarni qilish.” “Inson resurslarini boshqarish - insonning kuchli tomonlaridan foydalanish san’ati.” Druker inson kapitalini tashkilotning eng <i>muhim aktivi</i> sifatida ko‘rgan.
6	Stiv Jobs (1955–2011)	«Ustoz rahbar odamlarga nima qilishni aytmaydi, ularni ruxlantiradi.» “Ijodkor odamlarni yollagan bo‘lsangiz, ularga nima qilishni o‘rgatmang - ular o‘zlari o‘rgatadilar.” Jobs <i>motivatsiya va erkinlikni</i> inson boshqaruvining asosi deb bilgan.
7	Darren Emanuel (2025)	“Assessing Aptitude: A Critical Analysis of the Effectiveness of HRM Competency Frameworks in Civil Service Recruitment, Selection, Retention and Promotion”. Buyuk Britaniyada davlat xizmatidiki kadrlarni jalb qilish, tanlash, saqlash va tarmoqlarni ko‘rib, HRM kompetensiya ramkalari qanchalik samarali ekanini tahlil qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Mavzuni ilmiy o‘rganish, tarixiy-mantiqiylik, tahlil va tadqiq etish jarayonida tizimli tahlil, statistik tahlil va ilmiy abstraksiya kabi usullaridan foydalanilgan. Maqolada, O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari ma’muriyatchiligidan boshqaruv tizimida shaffoflik va ishonchlilik tamoyiliga asoslangan sifat jihatidan yangi tizimini yaratish, bojxona sohasida huquqbuzarliklarning oldini olish hamda sohaga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy orqali xizmat faoliyati samaradorligini oshirishda inson resurslarini rivojlantirishga oid ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalar berildi.

Tahlil va natijalar


So‘nggi ikki o‘n yillikda inson resurslarini boshqarishning (HRM) tashkilot samaradorligiga hissassi haqida qiziqish ortib bormoqda. Jumladan, inson resurslari (HR) mutaxassislaridan talab etiladigan muhim kompetensiyalardir. HR kompetensiya modellari HR funksiyasining samaradorligini belgilash va HR mutaxassislari uchun eng yaxshi amaliyot standartlarini belgilovchi asos sifatida qo‘llanilgan.

Umuman olganda, HR adabiyoti ba'zi HR kompetensiyalarining barcha tashkilotlar uchun zarur va maqbul ekanini hisoblaydi. Ammo boshqa tadqiqotchilar HR kompetensiyalarining ahamiyati turli tashkilot sharoitlarida farqli bo'lishi mumkinligini va shu bois ularni talab qiladigan omillar muhitga bog'liqligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, HR mutaxassislari mavjud HR kompetensiya modellari o'z rollarida ishda muvaffaqiyatni aniqlashda samarasiz deb hisoblaydilar, chunki ular muayyan tashkilot kontekstiga mos kelmaydi degan fikrni ham ta'kidlashadi.

Bu tadqiqot HR kompetensiyalarining kontekstga bog'liq tabiati haqidagi muhokamaga hissa qo'shishni maqsad qilgan holda situativ yondashuvni qabul qiladi. Aniqroq aytganda, bu tadqiqot ba'zi HR kompetensiyalarining kontekstga xos ekanligini, ya'ni mahalliy sharoitlarga mos keladiganligini tadqiq qiladi.

Zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda kadrlarni saralab olish va joy-joyiga qo'yish, ularning malakasini uzluksiz oshirib borishning shaffof va adolatli tartibini joriy etish bugungi kunning dolzarb masalalariga aylanmoqda.

Bugungi kunda inson resurslarini boshqarishda HR jarayonlarini avtomatlashtirish, optimallashtirish va tezkor qarorlar qabul qilishga yordam beruvchi bir qator muhim ahamiyat kasb etuvchi yechimlari mavjud (1-rasm).



1-rasm. Inson resurslarini boshqarishda raqamlashtirishning muhim jihatlari

Inson resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalar korxonalarining samaradorligi, raqobatbardoshligi va innovatsion rivojlanishini ta'minlashda muhim omilga aynalmoqda. HR jarayonlarini avtomatlashtirish, ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish, xodimlar malakasini tezkor oshirish – bularning barchasi raqamli HRning asosiy ustunliklaridir.

Texnologik yechimlarning to'g'ri joriy etilishi korxonalarga nafaqat ish jarayonlarini yengillashtirish, balki inson kapitalini strategik qiymat sifatida qo'llash imkonini ham beradi.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda bojxona organlarida ham inson resurslarini boshqarishda raqamlashtirishga bo'lgan ehtiyoj mavjud bo'lib, ayniqsa bojxona organlari tizimiga nomzodlarni saralash va qabul qilish hamda ularni kasbga yo'naltirishga oid jarayonlarni raqamlashtirishni taqozo etmoqda.

Bu borada bojxona organlarining asosiy vazifalariga to'xtalishni joiz deb topdik. Jumldan,

- jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlarini himoya qilish;
- o'z vakolati doirasida O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash;
- bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini amalga oshirish;
- bojxona to'lovlarini undirish;
- bojxonaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashish;
- bojxona organlari faoliyatidazamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini va nazoratning texnik vositalarini qo'llashdan iboratdir.

Bojxona organlaridagi xizmatga fuqarolarni qabul qilish, lavozimga tayinlash, ularning bojxona organlaridagi xizmatda ko'tarilishi va boshqa lavozimga o'tishi ushbu fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar amalga oshiriladi[2]. Bu jarayonlarni amalga oshirishda albatta bojxona organlarida inson resurslarini shaffof va adolatli boshqarishni taqozo etadi. Bu esa tizimda fuqarolarni xizmat qabul qilish, o'qitish, lavozimga tayinlash borasidagi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish jarayonlarini raqamlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish to'g'risida" PF-122-son Farmoni[7] ning 2-ilovasi bilan tasdiqlangan yo'l xaritasining 20-bandida 2022-yilning sentyabr oyiga qadar xodimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni jamlash, saqlash va tahlil qilishni raqamlashtirishga yo'naltirilgan "Bojxona xodimi" axborot tizimini yangidan ishlab chiqish vazifasi belgilangan.

Mazkur farmon ijrosini ta'minlash maqsadida "Bojxona xodimi" axborot tizimining yangi tahririni ishlab chiqish bo'yicha texnik topshiriq tasdiqlangan hamda qonunchilikda belgilangan tartibda axborot va kiberxavfsizlik talablariga muvofiqligi bo'yicha ekspertizadan o'tkazilgan.

Texnik topshiriq asosida axborot tizimi yangidan ishlab chiqilgan, Bojxona qo'mitasining 2022-yil 8-iyundagi 134-sonli buyrug'i bilan amaliyotga joriy etilgan.

Bugungi kunda "Bojxona xodimi" axborot tizimi xodimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni (maxfiy va tarqatilishi cheklangan ma'lumotlardan tashqari) to'liq jamlash, saqlash va tahlil qilish imkoniyati ega.

Jumladan, tizimga 5000 dan ortiq xodimlar va kursantlar to'g'risidagi ma'lumotlar kiritilgan, shuningdek alohida hisobot shakllari ishlab chiqilgan bo'lib, malaka oshirgan xodimlar bo'yicha ham ma'lumotlar olish imkoniyati yaratilgan. Shaxsiy tarkib bo'yicha buyruqlar axborot tizimi orqali shakllantiriladi va xodimning ma'lumotlari avtomatik shakllanadi.

Shuningdek, bojxona organlari tizimida inson resurslarini boshqarishda ularni kasbiy tayyorgarliklari va malakalarini uzluksiz oshirib borish maqsadida “Elektron ta’lim” masofaviy o’qitish avtomatlashtirilgan axborot tizimi Bojxona qo‘mitasining 2020 yil 12 oktyabrda 181-son buyrug‘i bilan amaliyotga joriy etilgan bo‘lib, mazkur dastur alohida mustaqil platforma hisoblanadi va faqat bojxona organlarinig lokal tarmoqlari orqali foydalanish imkoniyati mavjud.

Mazkur axborot tizimi orqali barcha xodmlar ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, mustaqil ravishda kasbiy tayyorgarliklarini oshirib borishlarini tashil etish maqsadida bugungi kunda 2000 dan ortiq o‘quv materiallari (taqdimot, videodarslar) joylashtirilgan. Tizim 10 ta bo‘limdan iborat bo‘lib, xodimlar mazkur tizim orqali xorijiy tillarni o‘rganishlari ham mumkin bo‘ladi.

Ushbu tizim asosida bojxona organlariga oid qabul qilingan normativ me’yoriy hujjatlar, unga kiritilgan o‘zgartirishlar hamda soxaviy yo‘nalishlar asosida yo‘lga qo‘yilgan mahorat dars mashg‘ulotlari olib boriladi. Barcha shaxsiy tarkib ushbu dastur orqali o‘z blim va ko‘nikmalarini mustaqil takomillashtirib boradi va har bir berilgan topshiriqlarini test savollarini topshirish orqali malaka samaradorligi nazorat qilib boriladi.

Ta’kidlash joiz, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi “Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish va bojxona ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-122-son qarorida ham aynan bojxona organlari xodimlari malakasini oshirish bo‘yicha “Malaka” avtomatlashtirilgan tizim ishlab chiqish yuzasidan topshiriq berilgan.

Yangi tizim mutlaqo yangi, yanada takomillashgan, bojxona organlari amaliyotiga joriy etilgan boshqa axborot tizimlariga integratsiya qilingan, shuningdek undan tashqi tarmoq ishtirokchilari (TIF qatnashchilari, boshqa vazilik va idora xodimlari) foydalanishi imkoniyati yaratiladi.

Natijada bojxona organlari tizimida inson resurslarini boshqarishda raqamlashtirish asosida shaffof inson omilisiz boshqaruv tizimini shakllantirishga erishaladi. Shuningdek quyidagi muhim ahamiyat kasb etuvchi samaradorlik ta’minlanadi. Jumladan (2-rasm).

Bojxona organlari tizimida inson resurslarini boshqarishda raqamlashtirishning afzalliklari	NATIJALAR
☐ Avtomatlashtirilgan tizimlar	☐ Ma’lumotlarni qayta ishlash vaqtini sezilarli kamaytiradi, natijada faoliyat samaradorligi va tezkorligi ta’minlanadi
☐ Shaffoflikning oshishi	☐ Raqamli platformalar orqali xodimlar va rahbariyat o‘rtasidagi axborot almashinuvi yaxshilanadi. Shaffof reytinglar, KPI natijalari va mukofotlash tizimlarini ishonchligini oshiradi.
☐ Aniq tahlil va prognozlash	☐ Big Data va analitik instrumentlar inson resurslari sohasida kadrlar aylanishi, xodimlar motivatsiyasi, malaka yetishmovchiligi kabi muammolarni oldindan aniqlash imkonini yaratadi.

2-rasm. Bojxona organlari tizimida inson resurslarini boshqarishda raqamlashtirishning afzalliklari

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, nafaqat bojxona organlari tizimida balki boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida ham inson resurslarini boshqarishda zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida raqamlashtirish hamda o'zaro ma'lumotlar almashuvi tizimini integratsiya qilish maqsadga muvofiq.

Xulosa va takliflar

Bizning fikrimizcha bojxona organlari tizimida inson resurslarini boshqarishni raqamlashtirish asosida yangi innovatsion texnologiyalar jumladan avtomatlashtirilgan dasturlarni joriy etish orqali, bojxona organi xodimlariga tegishli bo'lgan barcha ma'lumotlar bazasini saqlash, tahlil qilish hamda ularni ma'lumot xavfsizligi va maxfiylikni ta'minlashga erishiladi. Shuningdek, xodimlarni raqamli platformalardan foydalanishga o'rgatish orqali xizmat faoliyati samaradorligi ortishiga erishiladi, tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlariga xizmat ko'rsatish vaqti tejash asosida sifat ortishi ta'minlanadi xarajatlar qisqarishiga erishiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni[3] bilan tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasida 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko'rsatkichlariga Qurolli Kuchlarning raqamli salohiyatini oshirish va axborot xavfsizligini ta'minlash, harbiy xizmatchilarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish borasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirish masalalari kiritilgan.

Shu bois, bojxona organlarida inson resurslarini boshqarishni raqamlashtirishga oid bir qator yechimini topishi mumkin bo'lgan vazifalarni amalga oshirish borasida ilmiy tadqiqotlarni olib borish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil 1-may.
2. O'zbekiston Respublikasining "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-502-son Qonuni. 2018-yil 10-oktyabr.
3. Bojxona qo'mitasining 2020 yil 12 oktyabrdagi 181-son buyrug'i
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "“O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. 2023-yil 11-sentyabr.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish to'g'risida" PF-122-son Farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi “Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish va bojxona ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-122-son qarori.

7. <https://lex.uz/docs/6600413>

8. <https://wos.academiascience.org>

9. <https://ecomindspress.com>

FARG'ONA VILOYATINING BOY TARIXI-SO'X TUMANING O'ZIGA XOS RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Hamma o'z tarixini ulug'laydi. Lekin bizning yurtimizdagidek boy o'tmish, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo'q. Bu merosni chuqur o'rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak.

Sh.Mirziyoyev

Bojxona instituti "Iqtisodiy va ijtimoiy fanlar" kafedrası professori v.b., p.f.d. (DSc), dotsent, bojxona xizmati polkovnigi Karimjonova Munavvar Ibragimovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining eng ko'hna Farg'ona viloyati va uning tarkibidagi So'h tumani tarixi hamda bugungi kundagi ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishi, qadimgi davrlar, jumladan Chust madaniyati va Davan davlati, Buyuk ipak yo'li davrida viloyatning ahamiyati, O'rta asrlarda turli davlatlar tarkibidagi o'rni, Qo'qon xonligi davri, Rus imperiyasi va Sovet davri hamda mustaqillik davridagi rivojlanish yo'llari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, buyuk tariximiz, islom sivilizatsiyasi, buyuk allomalar, Qadimgi davrlar, Buyuk ipak yo'li davri O'rta asrlar, Qo'qon xonligi davri, Rossiya imperiyasi va sovet davri, Mustaqillik davri, boy tarix, madaniy meros.

Аннотация: В данной статье рассмотрена история древнейшей Ферганской области Республики Узбекистан и Сохского района в ее составе, а также современное социально-экономическое развитие, древние времена, в том числе Чустская культура и Даванское государство, значение региона в период Великого Шелкового пути, Освещены роль различных стран в средние века, период Коканского ханства, Российской империи и советский период, пути развития в период независимости.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, наша великая история, Исламская цивилизация, великие учёные, Древние времена, эпоха Великого Шёлкового пути, Средневековье, эпоха Коканского ханства, Российская империя и советская эпоха, эпоха независимости, богатая история, культурное наследие.

Abstract: This article discusses the history and current socio-economic development of the oldest Fergana region of the Republic of Uzbekistan and its Sokh district, the importance of the region in ancient times, including the Chust culture and the Davan state, and the era of the Great Silk Road, the role of various countries in the Middle Ages, the period of the Kokan Khanate, the Russian Empire and the Soviet period, and the ways of development during the period of independence are highlighted.

Key words:New Uzbekistan, our great history, Islamic civilization, great scholars, Ancient times, the era of the Great Silk Road, the Middle Ages, the era of the Kokand Khanate, the Russian Empire and the Soviet era, the period of Independence, rich history, cultural heritage.

Kirish

Bugungi kunda O‘zbekiston o‘zining boy tarixiga ega ekanligi barchamiz uchun ham uning haqiqatan ham juda qiziqarli va ahamiyatlidir. Markaziy Osiyoning yuragida joylashgan bu mintaqa qadimgi sivilizatsiyalar, buyuk davlatlar va madaniy yuksalishlarning guvohi bo‘lgan.

Bu o‘lkada buyuk allomalarimiz yetishib chiqqan va ularning yaratgan ilmiy asarlari butun dunyoni o‘ziga qarata olgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bu borada muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning joriy yilning 29-yanvarida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishish jarayonida “Yangi O‘zbekistonning bunyodkorlik maktabi, ilmiy-ma’naviy salohiyatimiz ramzi sifatida tarixga kiradi. Har bir bo‘limning mazmun-mohiyati ayni shu maqsadga qaratilishi lozim. Bosh maqsadimiz – milliy o‘zligimizni anglash va anglatishdir” deb bejizga ta’kidlab o‘tmagan[6].

Albatta barcha O‘zbekistonda yashayotgan har bir shaxs o‘zining o‘tmishi, boy tarixini mukammal bilishi va uning kelajagi uchun jon kuydirib yashashi va Yangi O‘zbekistonni barpo etishda o‘zining munosib hissasini qo‘shishi kerak.

Mavzuga oid tahlillar

O‘zbekiston hududi Buyuk Ipak yo‘lining muhim qismi bo‘lib, bu yerda qadimgi So‘g‘d, Baqtriya, Xorazm kabi davlatlar mavjud bo‘lgan. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz kabi shaharlar ming yillik tarixga ega bo‘lib, ilm-fan, madaniyat va savdo markazlari bo‘lib kelgan.

O‘zbekiston tarixida Ahamoniylar, Aleksandr Makedonskiy, Kushon podsholigi, Eftalitlar, Turk xoqonligi kabi imperiyalar o‘z ta’sirini o‘tkazgan. VIII asrda Arab xalifaligi kelishi bilan Islom dini tarqalgan.

IX-XII asrlarda Somoniylar, Qoraxoniylar, G‘aznaviylar, Saljuqiylar davrida madaniy yuksalish bo‘lgan. XIII asrda Chingizxon istilosi, keyinchalik Amir Temur imperiyasi mintaqaning tarixiy rivojlanishida muhim rol o‘ynagan.

XVI-XIX asrlarda Shayboniylar, Ashtarxoniylar va uch xonlik (Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklari) davrlari bo‘lgan. Ushbu uchta xonlik

XIX asr oxiri - XX asr boshida Rossiya imperiyasi, keyinchalik Sovet Ittifoqi tarkibiga kirgan.

1991-yilda mustaqillikka erishgan O‘zbekiston o‘zining boy tarixiy merosiga tayanib, yangi davlatchilik an‘analarini shakllantirmoqda.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi

sohasidagi munosabatlarni “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonun bilan tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasi 12 ta viloyat va Qoraqalpog‘iston Respublikasidan tashkil topgan bo‘lib, Respublika shimolda va shimoliy-sharqda Qozog‘iston, sharqda va janubiy-sharqda Qirg‘iziston va Tojikiston, g‘arbda Turkmaniston, janubda esa Afg‘oniston bilan chegaradoshdir. Davlat chegarasining Afg‘oniston bilan uzunligi – 137 km., Qozog‘iston – 2203 km., Qirg‘iziston 1099 km., Tojikiston – 1 161 km. va Turkmaniston bilan – 1 621 km.

Ushbu maqolamizda O‘zbekistonning eng qadimiy va boy tarixga ega hududlaridan biri Farg‘ona viloyati tarixi hamda uning tarkibidagi So‘x tumani tarixiga bir nazar solish shuningdek, tumanda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar va o‘ziga xos blgan geografik jihatlarini yoritib berishni maqsad qildik.

Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tarixidagi davri ming yilliklarga borib taqaladi va turli sivilizatsiyalar, davlatlar va xalqlarning izlarini o‘zida jamlagan. Farg‘oga viloyatining vujudga kelishini quyidagi olti davrlar bo‘yicha ochib berish maqsadga muvofiq (1-jadval).

1-jadval

Farg‘ona viloyati tarixi va rivojlanish bosqichlari

T/r	Davr nomlari	Amalga oshirilgan ishlar tarixi
1	Qadimgi davrlar	Farg‘ona vodiysi neolit davridan boshlab odamlar yashaydigan hudud bo‘lgan. Arxeologik qazilmalar bu yerda miloddan avvalgi 3-2 ming yilliklarda dehqonchilik madaniyati rivojlanganligini ko‘rsatadi. Chust madaniyati (miloddan avvalgi 1500-900-yillar) buning yorqin dalilidir. Miloddan avvalgi VI-IV asrlarda Farg‘ona Ahmoniylar imperiyasi tarkibiga kirgan. Aleksandr Makedonskiy yurishlaridan so‘ng (miloddan avvalgi 329-327-yillar) bu yerda Yunon-Baqtriya davlati ta’siri kuchaydi.
2	Buyuk ipak yo‘li davri	Miloddan avvalgi II asrdan boshlab Farg‘ona Buyuk ipak yo‘lining muhim markazlaridan biriga aylandi. Bu davr Davan (qadimgi Farg‘ona) davlati gullab-yashnagan paytga to‘g‘ri keladi. Xitoy manbalarida Davan yuqori sifatli otlari, uzumzorlari va hunarmandchiligi bilan mashhur bo‘lgan.
3	O‘rta asrlar	VII-VIII asrlarda Farg‘ona Arab xalifaligi tarkibiga kiritildi va bu yerda Islom dini tarqala boshladi. IX-X asrlarda Somoniylar davlati tarkibida madaniyat va iqtisodiyot rivojlandi. XI-XII asrlarda Farg‘ona Qoraxoniylar davlati, keyinchalik Xorazmshohlar davlati tarkibiga kirdi. XIII asrda mo‘g‘ullar istilosi natijasida viloyat Chig‘atoy ulusi tarkibiga qo‘shildi. XIV-XV asrlarda Amir Temur va Temuriylar davlati davrida Farg‘ona yanada rivojlandi. XVI asrda Shayboniylar hukmronligi ostida bo‘lib, keyinchalik Buxoro xonligi tarkibiga kirdi.

4	Qo‘qon xonligi davri	XVIII asr boshida Farg‘ona vodiysida Qo‘qon xonligi tashkil topdi. Bu xonlik 1876-yilgacha hukm surdi va o‘z davrida Markaziy Osiyoning eng katta va kuchli davlatlaridan biriga aylandi. Qo‘qon xonligi davrida Farg‘ona vodiysida madaniyat, arxitektura, adabiyot va san‘at yuksaldi.
5	Rossiya imperiyasi va sovet davri	1876-yilda Qo‘qon xonligi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olindi va Turkiston general-gubernatorligi tarkibida Farg‘ona viloyati tashkil etildi. 1924-yilda O‘rta Osiyo respublikalarining milliy davlat chegaralanishi natijasida Farg‘ona viloyati O‘zbekiston SSR tarkibiga kiritildi. Sovet davrida Farg‘ona viloyatida sanoatlashtirish, qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish, madaniy inqilob amalga oshirildi. To‘qimachilik, yengil sanoat, kimyo sanoati, mashinasozlik korxonalari qurildi.
6	Mustaqillik davri	1991-yilda O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, Farg‘ona viloyati yangi taraqqiyot yo‘liga kirdi. Iqtisodiy islohotlar, sanoat va qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish, transport infratuzilmasini rivojlantirish, ta‘lim va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Tadqiqot metodologiyasi


Mavzuni ilmiy o‘rganish, tarixiy-mantiqiylik, tahlil va tadqiq etish jarayonida tizimli tahlil, statistik tahlil va ilmiy abstraksiya kabi usullaridan foydalanilgan. Maqolada, O‘zbekiston Respublikasining eng ko‘hna Farg‘ona viloyati va uning tarkibidagi So‘h tumani tarixi hamda bugungi kundagi ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishi hamda bugungi kundagi rivojlanish tendensiyalariga oid ilmiy ma‘lumotlar berildi.

Tahlil va natijalar

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar zaminida hududlarda yuqori iqtisodiy o‘sish va aholi bandligini ta‘minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas‘uliyatini oshirish kabi muhim vazifalar belgilangan.


Ta‘kidlash joizki, “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi doirasida yalpi hududiy mahsulot hajmi 6-7 foiz miqdorda o‘sishini ta‘minlashga qaratilgan hududning tabiiy geografik joylashuvi, ixtisoslashuvi, mehnat resurslari hamda infratuzilmaviy imkoniyatlarini inobatga olgan holda sanoat, qishloq xo‘jaligi, eksport, investitsiyalar, qurilish, xizmat ko‘rsatish va boshqa tarmoqlar bo‘yicha kichik dasturlar ishlab chiqish va ularning aniq yo‘nalishlari belgilash va tasdiqlash zarurligi belgilangan[3].


Jumladan Farg‘ona viloyati bo‘yicha 2025-yilda respublika va hududlar kesimida iqtisodiy o‘sish 6,3 foizga, ishsizlik 4,5 va kambag‘allik darajasini 5 foizga pasaytirish kabi maqsadli ko‘rsatkichlar belgilangan[2]. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda Farg‘ona viloyatining So‘x tumani bo‘yicha alohida to‘xtalib o‘tishni maqsad qildik va quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha ma‘lumotlar keltirish joiz deb bildik (1-rasm).



1-rasm. Farg'ona viloyatining So'x tumaning rivojlanish tendensiyalari

So'x tumani - O'zbekiston Respublikasining Farg'ona viloyatiga qarashli bo'lgan tuman bo'lib, uning o'ziga xos geografik, siyosiy va ijtimoiy xususiyatlari mavjud (2- rasm).





2- rasm. Farg'ona viloyatining So'x tumaning yo'nalishlar bo'yicha rivojlanish tendensiyalari

Xulosa

So'x tumani o'zining noyob geografik joylashuvi, boy tarixi va madaniy merosi bilan O'zbekistonning o'ziga xos hududlaridan biridir. Tumanning enklav maqomi o'ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqarsa-da, so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan xalqaro kelishuvlar va rivojlantirish dasturlari tumanning yanada taraqqiy etishiga zamin yaratmoqda.

Ayniqsa, Xalq deputatlari So'x tuman Kengashi "So'x tumani bo'yicha qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo'yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni tasdiqlash haqida"gi Qarori bilan belgilangan adolatli soliq stavkalari ushbu tumanning iqtisodiy o'sishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi[5].

So'x tumani O'zbekistonning o'ziga xos hududlaridan biri bo'lib, Qirg'iziston hududi bilan o'ralgan enklav hisoblanadi. Bu holat tuman aholisi uchun muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarsa-da, so'nggi yillarda O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi kelishuvlar natijasida aholi hayotida ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi to'g'risida" gi O'RQ-635-son Qonuni. 2020-yil

28-avgust.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘shish va aholi bandligini ta’minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-223-son Farmoni. 2024-yil 20-dekabr.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni. 2023-yil 11-sentyabr.

4. Sh.Mirziyoyev: “Islom sivilizatsiyasi markazi asrlar davomida xalqimizga xizmat qiladi”. 2025-yil 29-yanvar.

5. Xalq deputatlari So‘x tuman Kengashi “So‘x tumani bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni tasdiqlash haqida”gi Qarori. 2024-yil 30-yanvar.

6. <https://zamon.uz/uz-to/detail/mana-shu-markaz-sabab-bolib-tarixni-organishda-katta-qadamlar-qoydik-33734>.

7. <https://president.uz/uz/3085>.

CURRENT TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF MEDICAL EDUCATION

**Scientific justification for the choice of orthopedic tactics in patients after
completed orthodontic treatment**

Vakhobova M.B.

Alfraganus University, Tashkent, Republic of Uzbekistan

E-mail: vakhobovamaftuna@gmail.com

Abstract. Modern approaches to orthopedic treatment of patients after completed orthodontic therapy require a comprehensive analysis of functional occlusal parameters. Even after successful orthodontic correction, some patients retain signs of muscular discoordination and minor occlusal imbalances. This necessitates the development of functionally based orthopedic solutions aimed at restoring the physiological balance of the dentoalveolar system. The study presents a comparative evaluation of electromyographic, axiographic, and occlusal parameters in patients after orthodontic treatment. The use of complex diagnostic methods made it possible to individualize the orthopedic tactics. The results demonstrated that a functionally oriented approach contributes to the normalization of bioelectrical activity of the masticatory muscles and stabilization of mandibular movements. Thus, the scientific justification of orthopedic tactics plays a key role in ensuring long-term stability of orthodontic results.

Keywords: orthopedic treatment, post-orthodontic patients, electromyography, axiography, occlusal analysis, functional diagnostics, temporomandibular joint.

TIBBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB YO'NALISHLARI

**Ortodontik davolash yakunlangan bemorlarda ortopedik taktika tanlovining ilmiy
asoslanishi**

Vaxobova M.B.

Alfraganus Universiteti, Toshkent, O'zbekiston Respublikasi

E-mail: vakhobovamaftuna@gmail.com

Annotatsiya: Ortodontik davolash bosqichi tugagan bemorlarda ortopedik davolashning zamonaviy yondashuvlari okklyuziya funksional parametrlarini kompleks tahlil qilishni talab etadi. Hatto muvaffaqiyatli ortodontik tuzatishdan so'ng ham ayrim bemorlarda mushak faoliyati diskoordinatsiyasi va okklyuzion muvozanatsizlikning saqlanib qolgan belgilari kuzatiladi. Bu esa jag'-tish tizimining fiziologik muvozanatini tiklashga qaratilgan funksional asoslangan ortopedik yechimlarni ishlab chiqishni zarur qiladi. Tadqiqotda ortodontik davolashdan so'ng bemorlarda elektromiografik, aksiografik va okklyuzion ko'rsatkichlar solishtirma tahlil qilindi. Kompleks diagnostika usullarining qo'llanilishi ortopedik taktikaning individuallashtirilishini ta'minla-

di. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, funksional yo'naltirilgan yondashuv chaynash mushaklarining bioelektrik faolligini normallashtirishga va pastki jag' harakatlarini barqarorlashtirishga yordam beradi. Shunday qilib, ortopedik taktikaning ilmiy asoslanishi ortodontik natijalarning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: ortopedik davolash, postortodontik bemorlar, elektromiografiya, aksiografiya, okklyuzion tahlil, funksional diagnostika, chaynash bo'g'imi (VNYChS).

АКТУАЛЬНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ МЕДИЦИНСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Научное обоснование выбора ортопедической тактики у пациентов после завершённого ортодонтического лечения

Вахобова М.Б.

Университет Альфраганус, Ташкент, Республика Узбекистан

E-mail: vakhobovamaftuna@gmail.com

Аннотация. Современные подходы к ортопедическому лечению пациентов после завершённого ортодонтического этапа требуют комплексного анализа функциональных параметров окклюзии. Даже при успешном завершении ортодонтической коррекции у части пациентов сохраняются признаки дискоординации мышечной активности и микродисбаланс окклюзионных контактов. Это обуславливает необходимость разработки функционально обоснованных ортопедических решений, направленных на восстановление физиологического равновесия зубочелюстной системы. В исследовании проведена сравнительная оценка электромиографических, аксиографических и окклюзионных показателей у пациентов после ортодонтического лечения. Применение комплексной диагностики позволило индивидуализировать ортопедическую тактику. Результаты показали, что функционально ориентированный подход способствует нормализации биоэлектрической активности жевательных мышц и стабилизации движений нижней челюсти. Таким образом, научное обоснование выбора ортопедической тактики играет ключевую роль в обеспечении длительной стабильности ортодонтических результатов.

Ключевые слова

ортопедическое лечение, постортodontические пациенты, электромиография, аксиография, окклюзионный анализ, функциональная диагностика, височно-нижнечелюстной сустав.

Цель исследования. Научно обосновать выбор оптимальной ортопедической тактики у пациентов после завершённого ортодонтического лечения, используя комплексную оценку функциональных параметров — электромиографических, аксиографических и окклюзионных данных.

Введение. Ортодонтическое лечение направлено на устранение деформаций зубных рядов и гармонизацию прикуса, однако завершение ортодонтического этапа не всегда гарантирует полное восстановление функционального равновесия. Ряд исследований (Брагин Е.А., Персин Л.С., Лебеденко И.Ю., Саримсаков Ш.Б.) указывает, что у 40–60% пациентов после снятия брекет-систем наблюдаются признаки функциональной перегрузки отдельных зубов, асимметрия мышечной активности и нарушения движений мышц нижней челюсти. Такие изменения часто приводят к рецидиву деформаций или дисфункции ВНЧС. Актуальность работы определяется необходимостью внедрения функциональных методов анализа для выбора ортопедической конструкции, способной обеспечить равномерное распределение нагрузки. Применение аксиографии, ЭМГ и цифрового анализа окклюзии (T-Scan) позволяет не только диагностировать нарушения, но и контролировать эффективность ортопедической коррекции.

Материалы исследования

Исследование проведено на базе Университета Альфраганус. Включено 60 пациентов (37 женщин и 23 мужчины) в возрасте от 18 до 45 лет, завершивших ортодонтическое лечение. Все пациенты имели сохранённую жевательную функцию и отсутствующие признаки острой патологии ВНЧС. В зависимости от клинических проявлений пациенты были разделены на три группы: основную ($n = 25$) — пациенты с остаточными нарушениями окклюзии, сравнения ($n = 20$) — с минимальными функциональными изменениями, и контрольную ($n = 15$) — с физиологической окклюзией. Для каждого пациента проводилось клиническое, электромиографическое и аксиографическое обследование до и после ортопедической коррекции.

Таблица 1.

Показатели ЭМГ жевательных и височных мышц до и после ортопедического лечения

Группа пациентов	До лечения (мкВ)	После лечения (мкВ)	Изменение (%)
Основная	172 ± 15	198 ± 12	+15,1
Сравнения	165 ± 13	182 ± 10	+10,3
Контрольная	190 ± 11	192 ± 9	+1,1

Анализ электромиографических данных показал, что после ортопедического вмешательства отмечалось значительное улучшение симметрии активности жевательных и височных мышц. В основной группе увеличилась амплитуда биоэлектриче-

ских потенциалов, что указывает на восстановление функционального тонуса и оптимизацию нейромышечной координации. Положительная динамика подтверждает эффективность функционально ориентированной коррекции, направленной на равномерное распределение окклюзионных нагрузок. Стабилизация ЭМГ-показателей согласуется с клиническими наблюдениями (уменьшение жалоб на мышечное напряжение и болевые ощущения).

Методы исследования

Комплексное обследование включало электромиографию (ЭМГ), аксиографию и окклюзионный анализ с использованием системы T-Scan. ЭМГ проводилась для оценки биоэлектрической активности жевательных и височных мышц при максимальном сжатии и в покое. Аксиография применялась для регистрации траекторий движений мышечков ВНЧС и определения параметров сагиттального и горизонтального углов. Данные ЭМГ и аксиографии анализировались в сравнении с нормальными показателями, что позволило определить уровень функциональной симметрии. Окклюзионный анализ проводился для выявления неравномерности распределения жевательной нагрузки и локальных перегрузок. Статистическая обработка данных осуществлялась в программе SPSS 26.0 с применением критерия Стьюдента ($p < 0,05$).

Таблица 2.

Динамика аксиографических параметров движений ВНЧС

Показатель	До лечения	После лечения	Изменение (%)
Длина траектории (мм)	12,4 ± 1,3	15,1 ± 1,1	+21,7
Сагиттальный угол (°)	38,2 ± 2,6	45,4 ± 2,2	+18,9
С и м м е т р и я траекторий (%)	81,0 ± 5,2	93,5 ± 3,7	+15,4

Согласно результатам аксиографического анализа, после ортопедической коррекции движения мышечков ВНЧС стали более плавными и симметричными. Увеличение длины траектории и сагиттального угла свидетельствует о восстановлении физиологической подвижности суставных элементов. Это указывает на улучшение артикуляционной функции и согласованность между зубными рядами и суставами. Данные коррелируют с результатами ЭМГ, что подтверждает общую тенденцию к нормализации жевательного аппарата после проведённого лечения.

Результаты исследования

Результаты ЭМГ подтвердили улучшение симметрии биоэлектрической активности жевательных мышц после ортопедического вмешательства. В основной группе средние значения активности увеличились с 172 ± 15 мкВ до

198 ± 12 мкВ, что указывает на повышение функциональной эффективности. Аксиографический анализ выявил восстановление равномерности движений мышечков, увеличение длины траектории и угла сагиттального наклона. Положительная динамика прослеживалась у всех пациентов основной группы, что свидетельствует об адекватной адаптации суставных элементов. Результаты T-Scan показали перераспределение нагрузки с дистальных зубов на премоляры и фронтальные участки, что снизило локальную перегрузку. После ортопедической коррекции отмечалось исчезновение щелчков в суставе, уменьшение болевых ощущений и восстановление комфорта при жевании.

Таблица 3.

Изменение окклюзионных показателей после ортопедической коррекции

Показатель	До лечения	После лечения	Изменение (%)
Коэффициент симметрии нагрузки	0,78 ± 0,06	0,94 ± 0,02	+20,5
Средняя площадь контактов (мм ²)	9,4 ± 1,2	11,8 ± 1,0	+25,5
Максимальное жевательное давление (Н)	210 ± 25	250 ± 18	+19,0

Полученные результаты окклюзионного анализа показали равномерное распределение жевательных нагрузок после ортопедического вмешательства. У пациентов основной группы снизились показатели локальной перегрузки дистальных зубов и улучшился баланс правой и левой стороны. Повышение коэффициента симметрии до 0,94 ± 0,02 подтверждает восстановление функциональной гармонии при смыкании челюстей. Эти результаты демонстрируют эффективность проведённой коррекции и подтверждают важность функционального планирования ортопедического лечения.

Сопоставление данных ЭМГ, аксиографии и окклюзионного анализа показало тесную взаимосвязь между функциональными параметрами и клиническими проявлениями. Восстановление симметрии мышечной активности сопровождалось улучшением движений ВНЧС и равномерным распределением жевательной нагрузки. Это подтверждает, что функциональный анализ должен являться обязательным этапом при планировании ортопедического лечения пациентов после ортодонтической коррекции.

Выводы

1. У пациентов после завершённого ортодонтического лечения нередко сохраняются остаточные окклюзионные и функциональные нарушения, требующие комплексной диагностики и коррекции.
2. Применение ЭМГ, аксиографии и цифрового анализа окклюзии

позволяет объективно определить степень функционального дисбаланса и контролировать эффективность ортопедического лечения.

3. Полученные результаты свидетельствуют, что функционально ориентированный подход повышает симметрию мышечной активности, восстанавливает движение мышечков и нормализует распределение жевательной нагрузки.

4. Включение инструментальных методов диагностики в алгоритм выбора ортопедической тактики обеспечивает научную обоснованность и предсказуемость клинических результатов.

5. Функционально обоснованные ортопедические решения позволяют повысить эффективность и долговечность лечения, минимизировать риск перегрузки зубочелюстной системы и улучшить качество жизни пациентов.

Список использованной литературы

1. Брагин Е.А. Функциональные основы ортопедического лечения больных с нарушениями окклюзии. — Москва: МЕДпресс-информ, 2018. — 256 с.
2. Персин Л.С., Лебеденко И.Ю. Ортопедическая стоматология: принципы функционально ориентированного протезирования. — Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2019. — 432 с.
3. Саримсаков Ш.Б., Ибрагимов А.У. Оптимизация функционального состояния жевательных мышц после ортопедического лечения. // Стоматология. — Ташкент, 2020. — №3. — С. 45–50.
4. Тарасенко С.В., Долгополова И.В. Влияние ортопедических конструкций на функциональное состояние ВНЧС у пациентов после ортодонтического лечения. // Российский стоматологический журнал. — 2021. — №6. — С. 22–28.
5. Лукина Г.М. Применение аксиографии в клинической практике ортопедической стоматологии. — Москва: МГМСУ, 2020. — 214 с.
6. Okeson J.P. Management of Temporomandibular Disorders and Occlusion. — 9th ed. — St. Louis: Elsevier, 2020. — 512 p.
7. Dawson P.E. Functional Occlusion: From TMJ to Smile Design. — 2nd ed. — St. Louis: Mosby, 2019. — 576 p.
8. Slavicek R. The Masticatory Organ: Functions and Dysfunctions. — Vienna: Gamma Medizinisch-Wissenschaftliche, 2018. — 640 p.
9. Ferrario V.F., Sforza C. Electromyographic activity of masticatory muscles in different occlusal conditions. // Journal of Oral Rehabilitation. — 2017. — Vol. 44, No. 4. — P. 289–297.
10. Каюмов Ф.Х., Хамидова М.М. Комплексная оценка функционального состояния жевательных мышц при ортопедическом лечении. // Вестник стоматологии Узбекистана. — 2022. — №2. — С. 33–37.

TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI INNOVATSION
STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH

Yusupov Saidvali Shukrullayevich,

Alfraganus University,

Xalqaro turizm menejmenti

kafedrası professori v.b., PhD

Annotatsiya: Maqolada to‘qimachilik sanoati korxonalari innovatsion strategiyasini shakllantirish tadqiq etilgan. Shuningdek, ishlab chiqarish hajmi va mahsulot turlari kabi texnik-iqtisodiy xususiyatlariga ko‘ra sinflarga bo‘lingan ishlab chiqarish toifalari, strategiyalarni baholash asosida ularning kombinatsiyasi ko‘rinishida shakllantirish mumkinligi asoslab berilgan.

Kalitso‘zlar: Innovatsion strategiyasini shakllantirish, ommaviy ishlab chiqarish, seriyali ishlab chiqarish, ishlab chiqarishning tashkiliy turlari, ishlab chiqarish turlarining amaliy ahamiyati, yangi mahsulot turini yaratish, tovarni joylashtirish omili, ichki va tashqi omillar.

Аннотация: В статье рассматривается формирование инновационной стратегии предприятий текстильной промышленности. Обоснована возможность формирования совокупности категорий продукции, разделённых на классы по технико-экономическим характеристикам, таким как объём производства и виды продукции, на основе оценки стратегий.

Ключевые слова: Формирование инновационной стратегии, массовое производство, серийное производство, организационные типы производства, практическая значимость типов производства, создание нового вида продукции, фактор размещения продукции, внутренние и внешние факторы.

Abstract: The article studies the formation of an innovative strategy of textile industry enterprises. It also substantiates the possibility of forming a combination of production categories, divided into classes according to their technical and economic characteristics, such as production volume and product types, based on the assessment of strategies.

Keywords: Formation of an innovative strategy, mass production, serial production, organizational types of production, practical significance of types of production, creation of a new type of product, product placement factor, internal and external factors.

Kirish.

Har qanday sanoat korxonasi, jumladan to'qimachilik korxonalarining ham ish faoliyatiga bir qator omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu boisdan ham, to'qimachilik korxonalarining innovatsion strategiyalarini takomillashtirishga qaratilgan yondashuvlarimizni shakllantirishda, korxona faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni hisobga olish, ularni asoslash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bizga ma'lumki, korxona faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi barcha omillarni asoslashda, ichki muhit omillari va tashqi muhit omillariga ajratish mumkin. Iqtisodiy adabiyotlarda juda ko'p xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan tashkilotning ichki va tashqi muhit omillari o'rganilgan.

Shu bilan birga, to'qimachilik tarmog'ining tarmoqqa xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, to'qimachilik korxonasining faoliyatini tashkil etib, uning samaradorligini ta'minlashda, korxonani yagona bir tizim sifatida qarab, uning tarkibiga kiruvchi barcha korxona va tashkilotlar o'rtasida o'zaro muvofiqlikni ta'minlashga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tadqiq etish hamda korxonalarning innovatsion strategiyasi bo'yicha yondashuvlarni ishlab chiqib, samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan hisoblanadi [1].

Biz o'z tadqiqotlarimizni amalga oshirishda, zamonaviy innovatsion korxonalarning ichki muhit omillarini ishlab chiqarishning tashkiliy turlari, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tavsifi, korxonaning tashkiliy tuzilishi hamda uning rivojlanish strategiyasiga bo'lib, tadqiq etishni joiz, deb bildik.

Tashqi muhit omillariga esa, tashqi muhitning barqarorligi, etkazib beruvchilar bilan o'rnatilgan aloqalarning barqarorligi, bozor tavsifi hamda barqaror talabning mavjudligi kabi omillarni kiritdik.

Ishlab chiqarishning tashkiliy turlarini yakka ishlab chiqarish, seriyali ishlab chiqarish va ommaviy ishlab chiqarishni tashkil etishga ajratish mumkin.

T.N.Kashitsina "Ishlab chiqarish turi – ishlab chiqarishning izchilligi, muntazamligi, ishlab chiqarish hajmi va mahsulot turlari kabi texnik-iqtisodiy xususiyatlariga ko'ra sinflarga bo'lingan ishlab chiqarish toifasi [2]:

1. Ommaviy ishlab chiqarish turi doimiy ishlab chiqarishni va ommaviy ravishda doimiy ishlab chiqarishni amalga oshiradi. Uning jarayonlari ish joylarida mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi.

2. Seriya turi katta hajmdagi va tor o'zgaruvchan assortimentdagi mahsulotlarni ishlab chiqaradi, ular ma'lum vaqt oralig'ida kichik hajmli tovarlar partiyasining individualligi bilan ajralib turadi. Ushbu turdagi jarayonlar keng ixtisosliklarga ega bo'lgan mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Seriya turi partiyaning qanchalik kattaligiga va diapazonning qanchalik kengligiga bog'liq. Katta hajmdagi turi ommaviy ishlab chiqariladi, kichik o'lchamli turi bir marta ishlab chiqariladi va o'rta turdagi – oldingi ikkitasining o'rtacha ko'rsatkichi. Seriya turi ko'plab sohalarda mavjud va bozor manfaatlariga qaratilgan.

3. Yagona turdagi tovarlarning keng assortimentini ishlab chiqarishga qaratilgan, lekin bitta miqdorda. Bunday jarayonlar ishchilarning ixtisoslashuvidan qat'iy nazar amalga oshiriladi" – deb fikr yuritgan.

Ishlab chiqarishning tashkiliy turlari deb, korxonada amalga oshiriladigan texnologik jarayonning asosiy tashkiliy texnologik belgilari yig'indisi tushuniladi. Ishlab chiqarish turlari ishlab chiqarish operatsiyalarini bajarishda ish joyining ixtisoslashganligi, turli operatsiyalarning ishlab chiqarish jarayonidagi bir-biri bilan bog'lanish formalari, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlari va ularning miqdori, korxonaning tarkibi va quvvati bilan belgilanadi.

Ishlab chiqarish turlarining amaliy ahamiyati, ularni qaysi turga kiritish, ish joyi, sex, uchastka, umuman ishlab chiqarishni tayyorlash, rejalashtirish, hisob-kitob va nazorat qilish, mehnatni va ishlab chiqarishni tashkil etish formalarini belgilash imkoniyatini yaratadi.

Yakka ishlab chiqarish turida bir-biridan farq qiluvchi har xil buyumlar ishlab chiqariladi. Bu buyumlarning har biri donalab tayyorlanadi. Bunday korxonalarda har bir mahsulotni ishlab chiqarish uchun alohida tayyorgarlik ko'riladi, ya'ni konstruksiyasining qayta ishlash usullari va tartibi ishlab chiqiladi. Texnologik jarayon bir maromda bormaydi. Chunki ma'lum mahsulot ishlab chiqarish uchun ish joyi boshqa mahsulot ishlab chiqarishga kerak bo'lmaydi. Bunday holat ish joyini ixtisoslashtirishga to'sqinlik qiladi. Unda ishlayotgan ishchilardan har xil operatsiyalarni bajarish taqozo etiladi. Natijada mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari yuqori va mehnat unumdorligi past darajada bo'ladi. Aylanma fondlarning aylanishi sekinlashadi.

Seriyalik ishlab chiqarishga ma'lum muddatga ma'lum miqdorda mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar kiradi. Seriya deganda, ma'lum miqdorda belgilangan mahsulot turini ishlab chiqarish tushuniladi. Seriyalik ishlab chiqarishda har bir ish o'rinlariga ma'lum operatsiyalarni bajarish biriktiriladi va ular ma'lum muddatda qaytarilib turiladi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot miqdori ma'lum turi va vaqtiga qarab, kichik seriyalik, o'rta seriyalik, katta seriyalik bo'lishi mumkin. Seriyalik ishlab chiqarish yakka turdagiga nisbatan yuqori texnika iqtisodiy ko'rsatkichlariga ega bo'ladi. Ammo seriyali ishlab chiqarishda bir partiyadan ikkinchi partiyaga o'tishda texnologik jarayonni qayta shakllantirish, mashinalarni qayta taxtlash talab etiladi. Natijada bunday ishlab chiqarish samaradorlikni pasaytiradi.

Ommaviy ishlab chiqarishda bir turdagi mahsulot ko'p miqdorda doimiy uzoq vaqt korxona tomonidan ishlab chiqariladi. Ommaviy ishlab chiqarishning asosiy belgilaridan biri ish joyining ixtisoslashganligidir. Shu bilan bir qatorda korxonada ishlab chiqariladigan mahsulot miqdori ko'p, bir xil turda bo'lganligi sababli texnologik operatsiyalarning, jarayonlarning qaytarilishi muhim bo'ladi. Ommaviy ishlab chiqarish turiga to'qimachilik korxonalari kiradi, chunki to'qimachilik korxonalarida ishlab chiqariladigan mahsulotlar bir-biridan juda kam holda farqlanadi – xom ashyo sarfi qo'llanayotgan texnologik jarayon mahsulot tarkibi va h.k.

Ommaviy ishlab chiqarish yakka va seriyali ishlab chiqarish turidan doimiy ravishda ko'p miqdorda bir xil turdagi buyumlarni ishlab chiqarish bilan xarakterlanadi. Ommaviy ishlab chiqarishda ishlab chiqarish jarayoni tarash, qayta o'rash, to'qish, bichish, tikish, bo'yash va pardozlash sexlarida bajariladi. Bu esa eng ilg'or usullarni texnologik jarayonni hamma bosqichlarida ma'lum ish operatsiyasi bajarishga ixtisoslashtirish, ishchilar orasida mehnatni ratsional taqsimlash, qo'l mehnatini qisqartirish, og'ir jismoniy mehnatni engillashtirish, yangi texnikani, avtomat va yarim avtomatlarni qo'llash, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, ishlab chiqarish maydonlaridan yaxshiroq foydalanish, barcha resurslardan: xom ashyo, materiallar, yoqilg'i va elektr energiyasidan samarali foydalanishga imkon yaratib, sexlar, uchastka va butun korxonaning uzluksiz yuqori sur'at bilan ishlashini ta'minlaydi, ishlab chiqarish siklining davom etish vaqtini qisqartiradi, aylanma mablag'larning aylanishini tezlashtiriladi va natijada texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni yuqori bo'lishini ta'minlaydi [3].

Tashkilotning muhim ichki muhit omillaridan biri ishlab chiqarilayotgan mahsulotning tavsifi hisoblanadi. To'qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish bosqichlari bo'yicha paxta tolasi, paxta kalava ipi, xom surp, tayyor to'qimachilik gazlamasi, trikotaj matosi, paypoq mahsulotlari hamda tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqariladi.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning tavsifi, uni ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar, ya'ni mahsulot tannarxining tahliliga asoslanib, baholanadi. Bizga ma'lumki, mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga ishlab chiqarish tavsifidagi moddiy xarajatlar, mehnatga to'lanadigan haq xarajatlari, yagona ijtimoiy to'lov xarajatlari, asosiy fondlar amortizatsiyasi xarajatlari hamda ishlab chiqarish tavsifidagi boshqa xarajatlar kiradi. To'qimachilik korxonalarida ishlab chiqariladigan mahsulotlar tannarxini tahlil qiladigan bo'lsak, moddiy xarajatlar, xususan xom ashyo va materiallarga ketgan xarajatlar ulushi eng katta ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Korxonaning tashkiliy tuzilmasi ichki muhit omillaridan biri hisoblanadi. Innovatsion to'qimachilik korxonalari tarkibiga bir qator tashkiliy tuzilmalar kirishi mumkin, xususan fermer xo'jaliklari, paxta zavodlari, yigirish korxonalari, to'quv korxonalari, trikotaj korxonalari, tikuvchilik korxonalari, dizayn markazlari, tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, loyihalash, konstruktorlik byurolari, qurilish korxonalari shular qatoridan hisoblanadi.

Innovatsion to'qimachilik korxonalari faoliyati samarali tashkil etilishi uchun ular orasida uzviy integratsion aloqlarni o'rnatish talab etiladi. Boisi, o'zgaruvchan bozor sharoitida talab va taklif o'zgarishlarini, bozorlarning holatini, aholining tayyor to'qimachilik mahsulotlariga bo'lgan xohish va istaklarni hisobga olgan holda, xaridorgir mahsulotlarni tabal etilayotgan assortimentlar bo'yicha, zaruriy hajmda va talab etilgan vaqtda etkazib berish, va bunda korxonaning ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanishni ta'minlash kerak.

Innovatsion to'qimachilik korxonalari tashkiliy tuzilmasini an'anaviy, qat'iy

tartib-intizom va nazoratga asoslangan hokimiyatning o'rnatilishi bilan tavsiflanadigan chiziqli-funksional va moslashuvchan, jumladan divizional, loyihaviy yoki matritsali tuzilma ko'rinishida ham bo'lishi mumkin.

Korxona faoliyatini belgilab beruvchi ichki muhit omillaridan yana biri korxonaning strategiyasi hisoblanadi. Bunday strategiyani bizga ma'lum quyidagi strategiyalarni baholash asosida ularning kombinatsiyasi ko'rinishida shakllantirish mumkin [4]:

- yangi mahsulot turini yaratish, yangi bozorlarni egallash yoki mavjud bozorlardagi mavqeini mustahkamlash, yiriklashishga asoslangan o'sish strategiyasi;
- nazoratni kuchaytirish yoki yangi tuzilmalarga egalik qilish orqali firma faoliyatini kengaytirishga qaratilgan integratsiyalashgan o'sish strategiyasi;
- korxona mazkur bozorda, mazkur mahsulot turlari bilan tarmoq tavsifiga ega bo'lgan faoliyatini davom ettira olmay qolganida, korxonaning o'sishiga qaratilgan diversifikatsiyalash strategiyasi;
- korxonaning uzoq muddatli o'sish davridan keyin, yoki samaradorlikni oshirish maqsadida mavjud foydasiz yo'nalishlaridan voz kechishi bilan tavsiflanadigan qisqartirish strategiyasi.

To'qimachilik korxonalarini innovatsion strategiyasini ishlab chiqishda tashqi muhit omillarining ham o'rni katta. Tashqi muhit omillariga eng avvalo, tashkilot tashqi muhitining barqarorligi omilini kiritishimiz mumkin. Mazkur omil yuqori bo'g'in rahbarlari tomonidan o'z korxonalari faoliyatini qaysi tarmoq korxonasi ekanligini hisobga olgan holda, tashqi muhitga past, o'rtacha va yuqori barqarorlikka ega bo'lgan boshqa tarmoq korxonalari bilan qiyosiy taqqoslagan holda, ekspert baholash asosida tashxislanadi. Mazkur omil tashqi muhitning harakatchanligini, ya'ni tashkilot faoliyat yuritayotgan muhit o'zgarishlari tezligini tavsiflaydi. Tashqi muhit barqarorligini yuqori, ya'ni tashqi muhit kam o'zgaradigan, o'rtacha barqarorlik – tashqi muhit o'rtacha sur'atlarda o'zgaradigan, yoki past barqarorlik, ya'ni muhit tez o'zgaradigan turlarga ajratishimiz mumkin.

Yetkazib beruvchilar bilan aloqalarning barqarorligi tashqi muhit omillaridan hisoblanadi. Mazkur omil korxona faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi, va ular bilan birga ishlash faoliyatimizning barqarorlik darajasi bilan tavsiflanib, yuqori, o'rta va past darajada, deb baholanadi.

Bozor tavsifi raqobatni baholashga imkoniyat yaratadi. Bozordagi raqobat darajasini yuqori darajadagi – monopolistik raqobat, o'rtacha darajadagi raqobat – oligopoliya va raqobatning past darajasi – monopoliyaga ajratishimiz mumkin. Ushbu omilni baholash ekspertlar fikri asosida amalga oshiriladi.

Talabning barqarorligi bo'yicha iste'molchilarni baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Talabning yuqori darajadagi barqarorligi bozorda tovarga talabning deyarli o'zgarmasdan turishi bilan tavsiflanadi. O'rtacha barqarorlikda iste'molchilarning talabi

o'rtacha sur'atlarda o'zgaradi, past darajadagi barqarorlikda esa, iste'molchilarning talabi doimiy o'zgarib turadi. To'qimachilik mahsulotlari bozori iste'molchilarning talabining doimiy o'zgarib turishi bilan, talabning past darajadagi barqarorlikka ega ekanligi bilan tavsiflanadi.

Bizga ma'lumki, seriyali va ommaviy ishlab chiqarish tashkil etilganda, cheklangan turdagi mahsulotlar ishlab chiqariladi, shu boisdan ham, tashkilotning raqobatbardoshligini oshirish uchun yangi turdagi mahsulotlarni yaratib, ishlab chiqarishni tashkil etish, assortimentni kengaytirish, eskilarini differensiyalash kerak, deb hisoblaymiz. Ayniqsa, to'qimachilik va tikuv-trikotaj tarmog'i mahsulotlariga bo'lgan talab o'zgarishlarini hisobga oladigan bo'lsak, tarmoq korxonalarida muntazam ravishda eski mahsulot turlarini yangilash, zamon talablariga, moda o'zgarishlariga moslashtirish borasida ishlarni amalga oshirish, raqobatbardoshlikni ta'minlashning muhim omilidir.

Tarmoq mahsulotlari ham materiallar sarfini, ham mehnat sarfini ko'p talab etgani bois, mahsulotga yangi xossa va xususiyatlarni berish, yangi tur mahsulotlarini yaratganda, mahsulot ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish maqsadida yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini qidirish, xom ashyo va materiallarni etkazib berish shartlari bo'yicha ustunlikka ega yangi hamkorlarni topishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Diversiyalangan o'sish strategiyasi korxonaning mazkur bozorda o'zining bor mahsulotlari bilan rivojlana olmasligini, shu sababdan ham, o'z bozorida qolish uchun yangi mahsulot turlarini yaratishi zarurligini ko'rsatadi.

Markazlashuvga, yiriklashuvga asoslangan o'sish strategiyasida mavjud mahsulot turlariga yangi xossa va xususiyatlar berib, ularni takomillashtirish orqali, differensiyalash va yangilarini yaratishga asoslanadi.

Tashqi muhit nobarqaror bo'lganida, muntazam ravishda marketing tadqiqotlarini o'tkazish, bozor o'zgarishlarini hisobga olish va ularga tez moslashish kerak bo'ladi. Shu bilan birga, oligopoliya va monopolistik raqobat sharoitida ham, o'zgarishlarni tadqiq etish, ularni hisobga olgan holda faoliyatni tashkil etish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish zarur, deb hisoblaymiz.

Yetkazib beruvchilar bilan barqaror bo'lmagan aloqalar o'rnatilgan holatlarda, ularning faoliyatini kuzatish hamda to'g'ri qaror qabul qilish kerak bo'ladi.

Talab past hamda o'rtacha barqarorlikka ega bo'lganda, talab o'zgarishlarini kuzatish hamda yangi tur mahsulotlarini yaratish yoki mavjud mahsulot turlarini takomillashtirish orqali unga moslashish, maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bozor, talab va taklif o'zgarishlariga tez moslashish tamoyilini tahlil qilganda, boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida, korxona personalining o'z ustida mustaqil ishlashi, o'zini-o'zi malakasini oshirish ham ko'rib chiqilishi kerak. Yangi tur mahsulotini yaratishda esa, korxonaning turli tarkibiy tuzilma vakillaridan iborat

guruhni shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi, xususan bunday guruhlar diversifikatsiyalangan bo'lishi, ularning tarkibi o'zgarishi kerak.

To'qimachilik korxonalarining innovatsion strategiyasini takomillashtirishga ta'sir etuvchi omillar orasida ishlab chiqarish hajmi hamda unga bog'liq bo'lgan omillar alohida o'rin tutadi. Ishlab chiqarish korxonasi o'zi ishlab chiqargan mahsulotidan ortiq hajmdagi mahsulotni sota olmaydi.

Sotilayotgan mahsulotlar sifati omili raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi, boisi sifatsiz mahsulotni isrof bo'lgan xom ashyo deyishimiz mumkin. Shuning uchun ham, bir xil sharoitlarda iste'molchilar sifatlirorq mahsulotga ko'proq ustunlik berib, yuqoriroq baholaydilar. Bundan tashqari, sifatlil mahsulotlar xaridorning firmaga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Mahsulotning bahosi omili ham iste'molchi uchun juda ahamiyatlidir. Mahsulotning bahosi, uni shakllantirish yo'llari, iste'molchi nuqtai-nazaridan mahsulotning bahosi, iste'molchi tovarni zaruriylik darajasiga qarab, qanday baholayapti, qanday narxga sotib olishga tayyor, talab va taklif o'zgarishlari, bularning hammasini hisobga olish kerak bo'ladi.

Korxonaning bozordagi faolligi omilini ham hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Mahsulot bozorda yaxshi sotilishi uchun potensial iste'molchilar u haqida ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lishlari kerak bo'ladi. Bu haqida marketing kompleksi unsurlaridan biri – "promotion" ham ta'kidlab o'tadi. Korxona o'z mahsuloti haqida ko'proq ma'lumotlarni keng auditoriyaga etkazish uchun ko'rgazmalarda, tanlovlarda ishtirok etishi, reklama ishlarini amalga oshirishi, ma'lum aksiyalarni tashkil etishi, mijozlarni ko'proq jalb etish va ularning korxona mahsulotiga bo'lgan ishonchini oshirish maqsadida turli marketing tadqiqotlarini o'tkazishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Sotuvni yo'lga qo'yish tizimi ham, to'qimachilik korxonalarining innovatsion strategiyasini takomillashtirishga ta'sir etuvchi omillar hisoblanadi. Xaridorlar bilan bevosita ishlaydigan xodimlar faoliyati bilan firmaning sotuv hajmi, ma'lum ma'noda bog'liq bo'ladi. Ularning xaridorlar bilan muloqat qilish qobiliyati, muomaladagi muloyimlik, sotilayotgan tovar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishlik, mahsulotni taqdim eta olish qobiliyati, ulardagi ko'tarinki ruh hamda motivlash, korxonaning daromadi ko'rsatkichiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Korxonaning joylashgan o'ri, sotuvni amalga oshirish joyi – omillarini tadqiq etish ham, samaraga erishishga imkon beruvchi omillardan hisoblanadi. Sotuv hajmiga korxonaning joylashgan o'ri ma'lum ma'noda o'z ta'sirini o'tkazadi. Xususan, korxona yirik shaharda joylashganmi yoki kichik bir qishloqda, shaharning markazida joylashganmi yoki chekkasidami, mazkur omillar korxonaning ish faoliyati ko'rsatkichlariga, uning daromadiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Mazkur ta'sir doirasi korxonaning faoliyati turiga bog'liq holda, turlicha bo'ladi.

Tovarni joylashtirish omili – marketing kompleksidagi muhim unsurlardan

“place” hisoblanadi. Tovarni taqsimlash tizimi, yoki uning sotilish joyi, tovarni mijozga eng kam sarf-xarajatlar bilan etkazish nuqtai-nazaridan samarali bo‘lishi kerak. Bu tizim qanchalik yaxshi ishlab chiqilgan bo‘lsa, u orqali shunchalik ko‘p tovarlarni sotishga erishiladi. Tovar maqsadli, ya’ni kerak vaqtda zarur bozorda bo‘lishi kerak.

To‘qimachilik korxonalarini strategik boshqarishda, korxonada qanday turdagi mahsulotlar ishlab chiqarilyapti, qanday hajmlarda ishlab chiqarilyapti degan savol bilan birga, qanday xarajatlar bilan ishlab chiqarilyapti, degan savol ham muhim ahamiyatga ega. Korxona xarajatlari ko‘p jihatdan etkazib beruvchilarga bog‘liq, shu bilan birga, korxona resurslaridan oqilona foydalanish hisobiga mahsulot tannarxini pasaytirish ichki imkoniyatlarini ishga solish, o‘z navbatida raqobatbardoshlikni oshiradi. Mazkur o‘zgarishlar o‘z navbatida korxonada sotuv darajasiga ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, yondosh tovarlar va xizmatlar, jumladan tovarni etkazib berish, kafolatli xizmat ko‘rsatish, o‘rnatish, sozlash, o‘rash-joylash ishlari kabi bir qator yondosh omillar mijozga, o‘z navbatida sotuv darajasiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Korxonada mahsulot assortimentlari nomenklaturasi qanchalik keng bo‘lsa, xaridorlar uchun tanlash imkoniyati ham, shunchalik katta bo‘ladi. Tovarlar assortimentini kengaytirish, differensiyalash darajasini oshirish korxonada sotilgan mahsulot hajmi ortishining muhim omillaridan hisoblanadi. O‘zgaruvchan bozor talablari sharoitida assortimentlarning keng bo‘lishi, uni bozor talablariga oson moslashuvchan, egiluvchan bo‘lishga imkon yaratadi. Qaysidir bitta assortiment tovarlariga talab yo‘qolgan taqdirda ham, boshqa assortiment tovarlari hisobiga sotuv hajmining yuqori darajada bo‘lishiga erishiladi.

Mahsulotni sotish kanallari, ham to‘qimachilik korxonalarini strategik boshqaruvini takomillashtirishga ta’sir etuvchi omillardan biridir. Sotuvni firma do‘konlari orqali tashkil etish yoki vositachilar orqali sotuvni yo‘lga qo‘yish, xususan chakana sotuvni yoki ulgurji sotuvni amalga oshirish, qaysi biri samaraliroq ekanligi tahlil qilinishi kerak. Mazkur omil mahsulotning narxiga ham, korxonaning sotuv hajmiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Ichki muhit omillari o‘z-o‘zidan o‘zgarmasligi, balki korxona rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan boshqaruv qarorlariga bog‘liq holda amalga oshishi bois, ularni monitoring o‘tkazish obyekti sifatida qabul qilish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Fikrimizcha, korxonaning faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan, nazorat o‘rnatish imkoniyati yo‘q bo‘lgan tashqi muhit omillarini ham tadqiq etish kerak, deb hisoblaymiz.

Eng muhim tashqi muhit omillaridan biri bozorning umumiy dinamikasi omili hisoblanadi. Bozor dinamikasi deganda, bozor sig‘imini miqdoriy baholash o‘zgarishi tushuniladi. Bozor sig‘imi o‘sishi mumkin, shu bilan birga, qisqarishi ham mumkin.

Sotuvning mavsumiy dinamikasi, ko‘pgina tovarlar mavsumiy hisoblangani bois, kalendar yili davomida sotuv hajmi ko‘rsatkichi o‘zgarishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Jumladan, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalari mahsulotlari ham mavsumiylik tavsifiga ega.

Korxonaning raqobatchilari to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida sotuv hajmiga ta’sir etadi. Bunday ta’sir ijobiy ham, salbiy ham bo‘lishi mumkin.

Mijozlar ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida sotuv hajmiga ta’sir etadi. Mazkur ko‘rsatkichga nafaqat, korxonaning umumiy mijozlari soni, balki sotuv zanjiri bo‘yicha mijozlar bazasining tarkibi, dillerlar, vositachilar ham ta’sir etadi. Shuni ham hisobga olish zarurki, vaqt o‘tishi bilan mijozlarning fikri o‘zgarishi mumkin.

Tabiiy sharoitlar ham to‘qimachilik korxonalarini strategik boshqaruvini takomillashtirishga ta’sir etuvchi omillardan hisoblanadi. To‘qimachilik sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishda asosan, paxta xom ashyosidan foydalaniladi. Tabiiy shart-sharoitlar, jumladan ob-havo o‘zgarishlari ham sotuv hajmiga ta’sir ko‘rsatadi.

Kutilmaganda urushlarning bo‘lishi ham, sotuv hajmiga ta’sir etadi. Ayrim tarmoqlarda bunday holat ijobiy ta’sir ko‘rsatsa, boshqa holatlarda esa salbiy ta’sir etishi mumkin. Harbiy sektor bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq tarmoqlar ham, urushning ta’sirini his etishlari mumkin.

Davlat siyosatidagi va qonunchilikdagi o‘zgarishlar, jumladan davlat tomonidan pul-kredit, import va fiskal siyosatlarining amalga oshirilishi korxona va korxonalarning raqobatbardoshligiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, sotuv hajmiga ta’sir ko‘rsata oladigan, davlat boshqa iqtisodiy va siyosiy omillarni o‘zgartirishi mumkin.

Aholining soni va yoshi bo‘yicha tarkibi ham tashqi muhit omillaridan hisoblanadi. Bizga ma’lumki, umumiy aholi soniga nisbatan, ularning yoshi bo‘yicha tarkibi o‘zgarib turadi. Bu holat esa, ayrim mahsulotlarga nisbatan talabning ortishiga, boshqasiga nisbatan esa talabning pasayishiga olib keladi. Bundan tashqari, aholining soni bozorining maksimal o‘lchamlariga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Agar aholining daromadi darajasi ortsa, u holda uning asosiy, birlamchi ehtiyojlarini qondirishdan qolgan qismi ortib qoladi va u birlamchi ehtiyojga ega bo‘lmagan tovar va xizmatlar uchun yo‘naltirilishi mumkin.

O‘rnini bosuvchi tovarlar boshqa tovarlarning o‘rniga ishlatilishi mumkin. Shu boisdan ham, o‘rnini bosuvchi tovarlar narxining o‘zgarishi korxonaning sotuv hajmiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Ishlab chiqarish jarayonida xom ashyo va materiallar bilan birga, butlovchi materiallardan ham foydalaniladi. Shu boisdan ham, butlovchi materiallar narxining o‘zgarishi, o‘z navbatida boshqa tovarlarning sotuv hajmiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Agar mijoz o‘zining kelajagiga ishonsa, u ko‘proq iste’mol qilishga moyil bo‘ladi. Agar ertangi kuniga ishonmasa, u “qora kunlar” uchun jamg‘arma yig‘ib qo‘yishga moyil bo‘ladi va ortiqcha xaridlar qilmaydi. Demak, iste’molchining ertangi kunga bo‘lgan ishonchi ham sotuv hajmiga ta’sir etuvchi tashqi omillardan biri ekan.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, hamma tashqi omillar ham, har birkorxonaning faoliyatiga ta’sir ko‘rsatavermaydi. Shu boisdan ham, to‘qimachilik korxonalarning

innovatsion strategiyasini takomillashtirishga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etishda tarmoqning o'ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda, omillarni guruhlarga ajratish, ekspert baholash usuliga asoslanib, omillarning ahamiyatlilik darajasini baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. М.И.Самогородская. Организация и планирование предприятия. Учебное пособие. -Воронеж: ВГТУ. Ч.1. -2017. -225 с.
2. Кашицина Т. Н. Производственный менеджмент [Электронный ресурс]: учеб. пособие / Т.Н.Кашицина Е.С.Ловкова; Владим. гос. ун-т им. А.Г. и Н.Г.Столетовых. -Владимир: Изд-во ВлГУ, 2020. -200 с. -ISBN 978-5-9984-1114-4. -Электрон. дан. (2,71 Мб).
3. Мишин В.М. Управление качеством: Учеб, пособие для вузов. -М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2000. -303 с.
4. Р.А.Фатхудинов. «Инновационный менеджмент: Классификация, структуры и отличительные черты инновационных организаций; Экономические законы, законы организации, научные подходы и принципы и др.»: Учебник для вузов Изд. 5-е, испр., доп. «Питер», 2010. -188 с.

РОЛЬ ВНЕДРЕНИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ НОВОВЕДЕНИЙ В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ

Назарова Фатима Хакимовна

д.э.н, профессор ТГЭУ

Юсупов Саидвали Шукруллаевич

PhD, и.о. профессор

ALFRAGANUS UNIVERSITY

Аннотация. В данной статье исследованы вопросы роли внедрения управленческих нововедений в повышении конкурентоспособности предприятий. Актуальность данной статьи обусловлена тем, что в настоящее время интеллектуальный потенциал организаций стал определяющим фактором их конкурентоспособности. Успех работы организации на внутреннем и внешнем рынке в основном зависит от того, насколько умело она использует свой интеллектуальный потенциал.

Ключевые слова. Наука, техника, производство, предприятие, стратегия, эффективность, стратегия, управление, знания.

Annotation. This article contains information about development needs in science, technology, information and intellectual resources. The necessity of transition to new economic thinking on the basis of the preferential use of intellectual potential. Consider a set of management and related socio-economic relations, which occur during the development of intellectual capacity as the main factor of competitiveness.

Keywords. Science, technology, production, enterprise, strategy, efficiency, strategy, management, knowledge.

Мировой опыт развития и функционирования стран с рыночной ориентацией свидетельствует о значительной роли внедрения в теорию и практику хозяйствования новых управленческих решений. Именно этим определяется разница в уровнях эффективного хозяйствования этих стран. Несмотря на огромное число стран с рыночной ориентацией высокий жизненный уровень обеспечивается лишь немногими. При этом национальное богатство этих стран составляет, как правило, не материальные природные ресурсы, а интеллектуальный потенциал [3].

Современный этап развития науки и техники, производства характеризуется тем, что предприятия стремятся увеличивать наукоемкость изделий за счет повышения удельного веса технических новшеств, реализуемых в инновациях, инновационных технологиях, что позволяет им повышать уровень монополизма в данной сфере и диктовать покупателям и конкурентам свою политику. В

условиях перехода от экстенсивного к преимущественно интенсивному развитию экономики, перехода от затратного к рыночному механизму хозяйствования благосостояние общества уже определяется не массой факторов производства и не объемом инвестиций, а уровнем интеллектуального потенциала и его внедрением, что дает желаемый конечный эффективный результат.

Актуальность данной статьи обусловлена тем, что в настоящее время интеллектуальный потенциал организаций стал определяющим фактором их конкурентоспособности. Успех работы организации на внутреннем и внешнем рынке в основном зависит от того, насколько умело она использует свой интеллектуальный потенциал.

Интеллектуальный потенциал состоит из человеческого, организационного и клиентского потенциала. Человеческий потенциал включает в себя знания, практические навыки, творческие способности людей, их моральные ценности, культуру труда. Организационный потенциал входит техническое и программное обеспечение, оргструктура, патенты, бренды. Клиентский потенциал - это та часть интеллектуального потенциала, которая формируется в процессе взаимодействия с клиентами (устойчивые связи с клиентами, маркетинговые возможности, клиентские базы данных) [4].

Стратегии управления знаниями направлены на то, чтобы создать новую стоимость, реализованную в продуктах, людях и в процессах с помощью рационального формирования и использования знаний в организациях [4]. Основная цель этих стратегий - увеличение эффективности использования всех имеющихся ресурсов организации, получение лучших и более быстрых инноваций, совершенствование обслуживания клиентов, снижение потерь от неиспользуемых интеллектуальных активов. Использование стратегий управления знаниями способно повысить эффективность работы коммерческих организаций. В современных условиях управление знаниями становится ведущим фактором конкурентоспособности организаций, следовательно, экономики страны в целом.

Управление интеллектуальным потенциалом с целью практического использования в производстве - это сложный многофакторный процесс. Одной из самых трудных задач при этом является организация и управление работ при многоэтапности работ инновационного процесса. Наиболее сложным при этом, как показывает мировая практика, является ускорение по этапам работ внедрения инноваций, управленческих нововведений и всех связанных с ними работ, их взаимосвязь с ориентацией на конечные народнохозяйственные результаты.

Совокупность и взаимосвязь работ по технико-экономическому обоснованию проектных решений, по стратегическому маркетингу, НИОКР, опытно – экспериментальной и организационно – технологической подготовке производства, производству и оформлению инноваций, их внедрению в производство и распространению в другие сферы, широкому внедрению в отрасли называется *инновационной деятельностью* [4].

Изучение мировых проблем научно-технического, социально – экономического развития, свидетельствуют, что это развитие происходит волнообразно, в

соответствии с теорией длинных волн Н. Кондратьева, с циклами примерно в 50 лет. Пятая волна (1985 – 2035 гг.) характеризуется тесным взаимодействием стран в области создания новых технологий, контроля качества продукции, планирования и управления инновациями [4]. Ориентация на эффективность, поиск источников получения дополнительной прибыли требует в свою очередь перехода от затратного к эффективному рыночному механизму хозяйствования. Этого можно достичь, как показывает опыт передовых стран, за счет более полного удовлетворения инновационных потребностей экономики, что в свою очередь требует формирования нового рыночного мышления.

Уровень оценки знаний науки, техники, технологий, игравшие преобладающую роль в условиях индустриального развития теперь уступают место новым требованиям, в основе которых лежат умения решать информационные задачи, т.е. умение использовать возможности по внедрению интеллектуальных ресурсов страны [1].

Складывающиеся новые социально-экономические и производственно-информационные отношения в экономике в XXI веке на основе широкого применения управленческих нововведений будут способствовать, как показывает мировой опыт развития, повышению эффективности производства за счет достижения новых конкурентных преимуществ, качества продукции.

Проблемы необходимости эффективного использования интеллектуальных ресурсов особенно обострились в связи с Мировым финансово – экономическим кризисом, ухудшающейся экологической ситуацией [2].

Совершенствование управления экономикой требует создания качественно новой информационной базы, роста интеллектуального потенциала и формирования нового рыночно-ориентированного мышления. В соответствии с вышеизложенным необходимо развивать предпринимательскую деятельность на основе широко внедрения преимущественно интеллектуальных факторов производства.

Таким образом, происходящий во всем мире переход от концепции «индустриального общества» к концепции «общества инновационного» связан с объективной потребностью, необходимостью перехода от затратных к эффективным методам хозяйствования на основе соблюдения экологических, природоохранных мер, широкого использования возобновляемых источников энергии: солнечной, ветровой, термальной, энергии волн океана и других.

Использованная литература:

1. Yusupov S.Sh. The effectiveness of innovative investment management in the textile and light industry of Uzbekistan. // International Journal of Advance and Innovative Research (Conference Special). Indian Academicians and Researchers Association. Volume 7, Issue 1 (VIII) ISSN 2394 – 7780. January – March 2020. www.ijair.in

iaraedu.com.

2. Yusupov S.Sh. Efficiency of management of financial resources of textile enterprises of Uzbekistan. // Актуальные научные исследования в современном мире. Журнал. Украина. Выпуск 3(59). Март 2020 г. Част 3.

3. Yusupov S.Sh. Efficiency of Marketing Management in Textile Enterprises. // Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR) ISSN: 2249–0892 Vol11 Issue–01, Jun -2021.

4. Yusupov S.Sh. Main aspects of organizing innovative textile corporations from Uzbekistan. // In Volume 5, Issue 12 of Academicia Globe: Inderscience Research (AGIR), December - 2024.

TO‘QIMACHILIKDA INNOVATSION RIVOJLANISH STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI

Yusupov Saidvali Shukrullayevich,
Alfraganus University,
Xalqaro turizm menejmenti
kafedrası professori v.b., PhD

Annotatsiya: Maqolada to‘qimachilikda innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish mexanizmi tadqiq etilgan. Shuningdek, innovatsion faoliyatni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishning konseptual modeli, SWOT-tahlilining asosiy omillari va boshqa masalalar o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Innovatsion to‘qimachilik korporatsiyalari, innovatsion rivojlanish strategiyalari, innovatsiya vazifasini idrok etish, korxonada innovatsion faoliyatni boshqarish samaradorligi, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari, xatarlarni minimallashtirish choralari, SWOT-tahlili, tizimli, jarayonli va vaziyatli yondashuvlar.

Аннотация: В статье рассматривается механизм реализации стратегии инновационного развития текстильной промышленности. Также рассматриваются концептуальная модель разработки и реализации стратегии развития инновационной деятельности, основные факторы SWOT-анализа и другие вопросы.

Ключевые слова: Инновационные текстильные корпорации, стратегии инновационного развития, понимание задачи инноваций, эффективность управления инновационной деятельностью на предприятии, исследования и разработки, меры по минимизации рисков, SWOT-анализ, системный, процессный и ситуационный подходы.

Abstract: The article studies the mechanism of implementing the innovative development strategy in the textile industry. Also, the conceptual model of developing and implementing the strategy for developing innovative activities, the main factors of SWOT analysis and other issues are studied.

Keywords: Innovative textile corporations, innovative development strategies, perception of the innovation task, the effectiveness of innovative activity management at the enterprise, research and development, risk minimization measures, SWOT analysis, systematic, process and situational approaches.

Kirish.

Har bir tadbirkorlik subyektining innovatsion rivojlanish strategiyasini uning o'ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi va shakllantiriladi. Shu bilan birga, innovatsion faoliyatni rivojlantirish strategiyasi innovatsion jarayonning sezgirligi, oqilonaligi va intensivligini oshirish, mavjud resurslardan samarali foydalanish va natijada innovatsiyalar maqsadiga erishishni maqsad qilib qo'yadi.

“Innovatsiya vazifasini idrok etish innovatsiyalarni tan olish, ishlab chiqarish tizimi ularni amalga oshirishga manfaatdor va tayyor bo'lganda yoki innovatsiyalarni inkor etish, ular korxona manfaatlariga zid bo'lsa yoki ishlab chiqarish tizimi ularni amalga oshirishga tayyor bo'lmaganda bo'lishi mumkin”.

“Korxonada innovatsion faoliyatni boshqarish samaradorligi, katta darajada, ushbu faoliyatni boshqarish jarayoni texnologiyasi – ya'ni qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun qabul qilinadigan va amalga oshiriladigan qarorlar ketma-ketligiga bog'liqdir. Shu bilan birga, odatda, boshqaruv ishlarining shiddati turli bosqichlarda bir xil bo'lmaydi”.

“Sanoat korxonalarida innovatsiyalarni joriy etish tobora ko'proq ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, yuqori rivojlanish sur'atlari va daromaddorlik darajasini saqlab qolishning yagona usuli sifatida qaralmoqda.”

To'qimachilik sanoati ishlab chiqarishining tahlil qilingan statistik ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston to'qimachilik sanoatining raqobat kurashidagi zaif tomonlari to'quvchilik mashinalarining eskirganligi, malakali muhandis-texnik kadrlarning etishmasligi, to'qimachilik ishlab chiqarishining ixtisoslashuv darajasining pastligi, tikuvchilik va trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishga yo'naltirilgan mahalliy gazlama ishlab chiqarishning rivojlanmaganligidir.

“Qator hududlarda tola rivojlanishining past darajasi, shuningdek, xalqaro standartlarga muvofiq sifat menejmentini joriy etgan korxonalar soni aniqlandi. Respublikaning noxom ashyo tovarlari raqobatbardoshligi yuqori darajada emasligi haqidagi fikr bir qator tashkiliy-iqtisodiy masalalarni hal etish orqali amalga oshirilmoqda”.

“O'zbekiston to'qimachilik sektoriga xos xususiyat – bu sohaga xom ashyoning birinchi bosqichdagi qayta ishlash jarayonlarining ustunlik qilishi va xom ashyoni chuqur qayta ishlash darajasining pastligidir. Xom ashyoni chuqur qayta ishlash iqtisodiy jihatdan manfaatli bo'lishiga va O'zbekiston dunyoda paxta tolasi ishlab chiqarish bo'yicha oltinchi, uni eksport qilish bo'yicha uchinchi o'rinni egallashiga qaramay, mamlakatda ishlab chiqarilayotgan umumiy paxta tolasining faqat 65 %gina ichki bozorda qayta ishlanadi. Bu esa sohani rivojlantirish uchun ulkan salohiyat mavjudligini ko'rsatadi.

Asosiy qism.

O'zbekistonning jahon paxta ishlab chiqarishdagi ulushi 4 %ni tashkil etsada, uning

jahondagi paxta ipak ishlab chiqarishdagi ulushi 1 %dan ham kam. Matolar, to‘qimalar, tayyor trikotaj va tikish mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulush ham juda kam, chunki ishlab chiqarilayotgan ipakning faqat 50 %igina ichki ehtiyoj uchun qayta ishlanadi. Bu holat to‘qimachilik sanoatida texnologik siklni takomillashtirish masalasini kun tartibiga olib chiqadi.

Tadqiqot jarayonida aniqlanganidek, korxonaning innovatsion rivojlanishini boshqarish – bu obyektiv, maqsadli, dinamik va muvozanatli jarayon bo‘lib, u tashkilot, iqtisodiy va ishlab chiqarish rivojlanishining innovatsion yo‘nalishlarining sifat jihatidan yangi sinergetik holatga erishishga yo‘naltirilgan. Ushbu yo‘nalishlarni amalga oshirish uchun mos kompleks mexanizm orqali amalga oshirilishi kerak.

Innovatsion faoliyatni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayoni izchil, shuning uchun ham ushbu jarayonning barcha asosiy bosqichlarini aks ettiruvchi algoritmnii shakllantirish zarur. Soha, ishlab chiqarish hajmi va korporativ boshqaruv tizimiga qarab, amalga oshiriladigan vazifalar va ularning mazmuni farq qilishi mumkin.

Strategiyani shakllantirish korxonaning mavjud moddiy va nomoddiy resurslariga bog‘liq bo‘lgan innovatsion rivojlanish yo‘nalishini ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi, korxonaning raqobatbardosh profilini baholashni, tashqi va ichki muhitning ta’sir omillarini hisobga oladi.


Innovatsion rivojlanish maqsadini aniqlashda “korxonaning innovatsion maqsadi qilib, diversifikatsiyalash, bozor salmog‘ini oshirish, raqobatbardoshlikni oshirish, tannarxni pasaytirish va resurslarni iqtisod qilish, korxonaning to‘lovga qodirligini, moliyaviy jihatdan barqarorligini hamda boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish” olinishi mumkin. Maqsadlar daraxtini qurishda ekspert baholash usulidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi (1-rasm).

Strategiyani shakllantirish korxonaning mavjud moddiy va nomoddiy resurslariga bog‘liq bo‘lgan innovatsion rivojlanish yo‘nalishini ishlab chiqishni, korxonaning raqobatbardosh profilini baholashni, tashqi va ichki muhitning ta’sir omillarini hisobga oladi.

Innovatsion faoliyatni rivojlantirish strategiyasini shakllantirish uchun tashkilotning missiyasi va qarashlarini aks ettiruvchi, iqtisodiy, boshqaruv va ijtimoiy falsafani o‘z ichiga olgan korxonaning innovatsion faoliyati maqsadlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega bo‘lib, tashkilotning samaradorligiga ta’sir qiladi. Innovatsion faoliyatni rivojlantirishning asosiy maqsadlari aniqlangandan keyingina, ularni amalga oshirish yo‘llarini izlashga kirishish tavsiya etiladi. Qoida tariqasida, innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanadigan korxonaning iqtisodiy maqsadi daromadning o‘shirishini olish va oshirish, innovatsion rivojlanish usuliga o‘tish asosida barcha boshqaruv quyi tizimlarining samaradorligini oshirishdir.

Fikrimizcha, korxonaning innovatsion faoliyatini rivojlantirish strategiyasini shakllantirish uchun, dastlab tashkilotga atrof-muhit omillarining ta’sirini tahlil qilish

kerak. Atrof-muhit omillarining ta'sirini baholash tashkilotning raqobatbardosh profilini o'rganish, uning bozordagi o'rnini aniqlash, xavf va potensial tahdidlarni baholash, shuningdek, tashkilotning kuchli tomonlari va imkoniyatlarini aniqlash, moliyaviy holatini tahlil qilish va hokazolardan iborat.



1-rasm. Innovatsion faoliyatni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishning konseptual modeli¹

Tashqi muhitni tahlil qilish va baholashda korxonaning makro va mikro muhitidagi faoliyati unga eng ko'p ta'sir ko'rsatuvchi omillarni SWOT-tahlildan foydalangan holda amalga oshiriladi. Mazkur bosqich mahsulotning hayotiy sikli bosqichlarini ham o'z ichiga olib, kelajakda bozordagi mavqeining yomonlashuvini oldini olish maqsadida, yangi takomillashgan mahsulot turlarini yaratish uchun qo'yilmalarning zarurligini baholashga imkon beradi. Biznesning mavjud mavqeini aniqlash, shuningdek rivojlanishning bo'lishi mumkin bo'lgan yo'nalishlarini ishlab chiqishda portfel tahlili modelidan foydalanish mumkin.

Innovatsion rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish jarayonining keyingi vazifasi hozirgi vaqtdagi innovatsion rivojlanish holatining tahlili bo'lib, mazkur bosqichda innovatsion faollikning muhim ko'rsatkichlari holatini aniqlash zarur:

- tovar mahsuloti hajmida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari va innovatsion texnologiyalarga ketgan xarajatlarning salmog'i;
- asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash bilan bog'liq mashina va dastgohlarga ketgan xarajatlarning salmog'i;

- ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlaridan hamda texnologik innovatsiyalardan olingan daromadning korxona umumiy daromadidagi salmog'i;
- innovatsiyalarga kiritilgan xarajatlar rentabelligi va ularning oqlanish muddati.

Korxona innovatsion faoliyatini rivojlantirish strategiyasini shakllantirish mazkur bosqichining maqsadi – korxona innovatsion faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini aniqlashdan iborat bo'lib, innovatsion jarayonning intensivligi va oqilonaligini, tashkilotning innovatsiyalarga moyilligini, resurslardan foydalanish samaradorligini va innovatsion natijalarga erishishni aks ettiruvchi bloklardagi ko'rsatkichlarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Innovatsion faoliyatni baholash tashkiliy-boshqaruv, resurs, jarayon va natija bloklari bo'yicha amalga oshiriladi.

Keyingi asosiy vazifa innovatsion rivojlanish senariylarini ishlab chiqish va rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini baholash bosqichi hisoblanib, mazkur bosqichda ekspert baholashlar usulidan foydalanish, jumladan ko'p sonli me'zonlar bo'yicha muqobil variantni tanlashga asoslanadi.

“Innovatsion rivojlanish strategiyasini resurs bilan ta'minlash tizimini shakllantirish vazifasini, innovatsion strategiyani amalga oshirishda korxonaning moliyaviy va boshqa ehtiyojlarini qoplash manbalarini aniqlash ko'zda tutiladi”².

Korxonaning innovatsion rivojlanish strategiyasini baholash innovatsion rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish jarayonining yakuniy bosqichi hisoblanadi. Innovatsion faoliyat samaradorligini baholashda ilmiy taraqqiyotni qabul qila olishlik, korxonaning innovatsion intilishlarini bozorning qabul qila olishi, moliyaviy samaradorlik kabi ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Korxonaning innovatsion faolliги darajasini yaxlit baholash natijalariga asoslangan holda, tashkilotning innovatsion faoliyatini rivojlantirish strategiyasining asosiy yo'nalishlari tanlanadi.

Bunda, korxonalarning amaliy innovatsion faoliyatida uchramaydigan innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun mos strategiyalarni aksettiriladi. Xatarlarni boshqarishning innovatsion samarali usullarini ishlab chiqish strategiyasini shakllantirish uchun ularning paydo bo'lishining manbasini va mumkin bo'lgan sabablarini bilish kerak.

Xatarlarni minimallashtirish choralarini ko'rish uchun xavflarni tasniflash kerak. Tashkilot faoliyati jarayonida yuzaga keladigan deyarli barcha xavflarni quyidagi belgilarga ko'ra tasniflash mumkin:

- faoliyat yo'nalishi bo'yicha tadqiqot, tajriba ishlarini, ishlab chiqarishni amalga oshirishdagi xatarlar;
- mumkin bo'lgan xavf darajasiga ko'ra bardoshli, tanqidiy, halokatli xatarlar;
- amalga oshirilayotgan faoliyat turi bo'yicha moliyaviy, axborot, texnik, ekologik, ishlab chiqarish xatarlari;
- tavakkalchilik darajasiga qarab past, o'rta, yuqori darajadagi xatarlar.

Innovatsion faoliyatdan kelib chiqadigan xatarlarni tahlil qilish va baholashda statistik usullar, moliyaviy tahlil usullari, analogiya usuli, risklarni simulyatsiya qilish usuli, multiplikativ usul hamda reyting usullaridan foydalanish mumkin.

Innovatsion strategiyani baholash natijalariga ko'ra, rahbariyat maqsadli ko'rsatkichlarni, shuningdek rivojlanish maqsadlariga ham tuzatishlar kiritish haqida qaror qabul qilishi mumkin.

Strategiyalarni shakllantirishga yondashuvlar sohasidagi etakchilar orasida strategiyalarni ishlab chiqish uchun asosiy talablarni tizimlashtirgan va shakllantirgan K.Endryu, G.Xamel va M.Porterni ajratib ko'rsatish mumkin³.

K.Endryu tashkilotning mavjud imkoniyatlari va uning bozor imkoniyatlari o'rtasidagi muvofiqlikka asoslangan, shuningdek, mavjud xavf darajasini hisobga olgan holda, strategiyani taklif qildi.

M.Porter tashkilot strategiyasini uning raqobatdosh pozitsiyasidan kelib chiqqan holda, ishlab chiqish yondashuvini ishlab chiqdi va G.Xamel asosiy kompetensiyalar konsepsiyasining muallifi bo'ldi. Bizning fikrimizcha, SWOT-tahlili tashqi muhitni tahlil qilish va korxonaning raqobatbardosh profilini tuzish uchun eng qulay va informatsion hisoblanadi.

SWOT-tahlili – strategik rejalashtirish usuli hisoblanib, uning ajralib turadigan xususiyati tashqi va ichki muhit omillarining ta'sirini hisobga olish bo'lib, ular o'z navbatida to'rt guruhga bo'linadi, ya'ni zaif va kuchli tomonlar, imkoniyatlar va tahdidlar. Har bir guruh uchun omillarning umumiy xulosasi 1-jadvalda keltirilgan.

Shunday qilib, SWOT-tahlili korxonaning iqtisodiy samaradorligining asosiy ko'rsatkichlarini yoki uning yo'qligi sabablari ko'rsatkichlarini shakllantirishga imkon beradi, raqobatchilar bilan taqqoslaganda tashkilotning raqobatdosh ustunliklarini aniqlaydi, omillarni tahlil qilish asosida korxona mavqeini yaxshilash bo'yicha faoliyatning asosiy yo'nalishlarini yoritib beradi.

Fikrimizcha, SWOT-tahlil ma'lumotlari korxonaning raqobatbardosh profilini to'liq aks ettirish va innovatsion faoliyatni rivojlantirish maqsadlarini aniqlash imkonini beradi.

1-jadval

SWOT-tahlilining asosiy omillari⁴

Ichki omillar	
Kuchli tomonlar (Strengths)	Kuchsiz tomonlar (Weaknesses)
1. Muayyan vakolatlar mavjudligi	1. Muayyan vakolatning yo'qligi

3 Фетисова А.В. Инструменты формирования стратегии организации. Журнал. Аграрное образование и наука. 2017. №3. <https://cyberleninka.ru/article/n/instrumenty-formirovaniya-strategii-organizatsii/viewer>

4 Muallif ishlanmasi.

2. Barqaror moliyaviy manbalar	2. Rivojlanish uchun moliyaning erishib bo'lmisligi
3. Bozorda etakchi o'rin	3. Bozordagi beqaror holat
4. Raqobat ustunliklarining mavjudligi	4. Raqobat ustunligining yo'qligi
5. Ishlab chiqarishni boshqarish va mahsulot sotishning iqtisodiy usullaridan foydalanish	5. Mahsulot tannarxini tartibga solish usullariga e'tibor bermaslik, xarajatlarni boshqarishni tushunmaslik
6. Shaxsiy intellektual ishlanmalari, texnologiyalari	6. Asosiy vositalarning yuqori eskirishi
7. Yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan yaxshi yo'lga qo'yilgan munosabatlar	7. Yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan noaniq, beqaror munosabatlar
8. Xaridorlarning ehtiyojlari haqida tushunchaga ega bo'lish	8. Iste'molchi ma'lumotlarini tahlil qilishning yo'qligi
9. Samarali rivojlanish strategiyasidan foydalanish	9. Aniq belgilangan strategiyaning yo'qligi yoki uni amalga oshirish bo'yicha bosqichlarni amalga oshirishdagi tartibsizlik
10. Samarali boshqaruv	10. Boshqaruvda moslashuvchanlikning yo'qligi
11. Innovatsion texnologiyalar, mahsulotlar yoki xizmatlarni ishlab chiqish	11. Innovatsion rivojlanishga e'tiborning etishmasligi
12. Samarali marketing siyosati	12. Samarasiz marketing siyosati
Tashqi omillar	
Imkoniyatlar (Opportunities)	Tahdidlar (Threats)
1. Yangi bozorlarni ochish imkoniyati	1. Iste'molchi didining o'zgarishi, salbiy demografik o'zgarishlar tufayli bozor ulushini yo'qotish
2. Qonunchilikni targ'ib qilish	2. Qonunchilik talablarini qattiqlashtirish
3. Mahsulot assortimentini kengaytirish	3. O'rni bosuvchi mahsulotlarning paydo bo'lishi
4. Taklif etilayotgan tovar va xizmatlar segmentida zaif raqobat	4. Taklif etilayotgan tovar va xizmatlar bozorida yangi ishtirokchilarning paydo bo'lishi
5. Hamkorlikni kengaytirish imkoniyati	5. Muhim biznes sherigini yo'qotish
6. Resurslarning mavjudligi	6. Resurslarga kirishning yo'qligi yoki qattiqlashishi
7. Tashqi bozorga chiqishda savdo to'siqlarini kamaytirish siyosati	7. Xorijiy raqobatchilar bozoriga xaridorlar uchun qulayroq takliflar bilan kirish
8. Barqaror iqtisodiy vaziyat	8. Iqtisodiy vaziyatning beqarorligi

Korxonaning innovatsion faolligini oshirish uchun uni boshqarish bo'yicha umumiy sayi-harakatlar bilan birlashtirilgan maqsadli harakatlarni amalga oshirish kerak. Bunda asosiy maqsad – tashkilotning imkoniyatlaridan foydalanishning sezgirlikini, samaradorligini oshirish, innovatsion jarayonning intensivligi va oqilonaligini ta'minlash va innovatsion maqsadga erishishdan iborat bo'ladi.

Boshqaruvga yondashuvlar rivojlanishining hozirgi bosqichida tashkilotni boshqarishning uchta nazariyasi ma'lum: tizimli, jarayonli va vaziyatli yondashuvlar.

Jarayonli yondashuvning asosiy mohiyati boshqaruv funksiyalari va iqtisodiy

faoliyat jarayonida tashkilot tomonidan amalga oshiriladigan xarajatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va munosabatlarni topishdir. Tashkilotni boshqarish – bu boshqaruv funksiyalari, ular o'z navbatida boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonini amalga oshirishning ma'lum bir ketma-ket algoritmini ifodalaydigan ketma-ket va uzluksiz harakatlar jarayonidir.

Tizimli yondashuv tashkilotni ochiq tizim sifatida ko'rib chiqish g'oyasiga asoslanadi, bu esa o'z navbatida boshqa bir-biriga bog'langan quyi tizimlardan iborat. Tizim deganda bir-biriga ma'lum darajada bog'liq bo'lgan va butun tizim holatiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadigan elementlar majmuasi tushuniladi.

Tashkilot atrof-muhit bilan chambarchas bog'liq va uning ta'siriga ta'sir qiladi, tizimli yondashuv tizimni yanada samarali boshqarish uchun tashqi va ichki muhitning ayrim omillarining tashkilotda sodir bo'layotgan jarayonlarga ta'sir darajasini topish va aniqlash imkonini beradi.

Vaziyatli yondashuvning paydo bo'lishi maqsadlarga erishishda samaraliroq natijaga erishish uchun qo'llaniladigan boshqaruv usullarining mavjud vaziyatga bog'liqligini topish zarurati kabi bir qator sabablarga ko'ra yuzaga keldi.

Korxonaning tashkiliy tuzilmasi murakkabligini hisobga olib, innovatsiyalarni boshqarishni tashkil etishda tizimli va jarayonli yondashuvlarni eng maqbul, deb hisoblaymiz. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish va korxonaning innovatsion faoliyatini boshqarish mexanizmini shakllantirish muayyan vositalarni ishlab chiqishni talab qiladigan murakkab qo'shimcha vazifadir.

Shuni ta'kidlash kerakki, korxona rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan boshqaruv qarorlarining murakkablik darajasi yuqori, chunki:

- innovatsion korxonaning rivojlanishi va faoliyati bir tekis bo'lmagan o'zgarishlar sharoitida amalga oshiriladi hamda innovatsion faoliyatni rejalashtirish va prognozlash bilan bog'liq mavjud muammolar orqali to'sqinlik qiladi;

- innovatsion korxona vakili bo'lgan bozor, iqtisodiy nobarqarorlik sharoitida faoliyatni amalga oshirish qoidalarini belgilaydi va iste'molchilarning xatti-harakatlari tendensiyalarining tez-tez o'zgarishi bilan tavsiflanadi.

Xulosa va takliflar.

Boshqaruv jarayonida yuzaga keladigan va ularni hal qilishning yagona ma'noli usuliga ega bo'lmagan muammolarning paydo bo'lishi munosabati bilan, ularni bartaraf etish mexanizmini ishlab chiqish zaruriyati yuzaga keladi.

Biz o'z tadqiqot ishimizda “Boshqaruv mexanizmi”ga iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan ta'riflarni tadqiq etishni joiz, deb bildik.

Xorijlik iqtisodchi olimlardan Dj.K.Lafta fikriga ko'ra, “Boshqaruv mexanizmi deganda, tashkilotni boshqarish uchun foydalaniladigan ma'lum ta'sir vositalari yoki

dastaklar majmui”⁵ tushuniladi.

Rossiyalik iqtisodchi olimlardan M.I.Samogorodskaya esa, “Boshqarish mexanizmi boshqaruv tizimining elementi bo‘lib, samaradorlik natijalariga erishishni belgilovchi omillarga ta’sir qilish faoliyatidir”⁶ deb ta’rif bergan.

R.G.Mannapov va L.G.Axtarievalar fikricha esa, “Boshqaruv mexanizmi to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita ta’sir ko‘rsatadigan boshqaruv vositalarining ma’lum majmui bo‘lib, ularning ta’siri ostida iqtisodiy jarayonlarning samaradorligi ortadi”⁷.

L.V.Novokshonova va Y.V.Trifonovlar “Boshqarish mexanizmi harakatlantiruvchi kuch bo‘lib, u orqali nazorat subyekti nazorat obyektiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi”⁸, – degan fikrni ilgari suradilar.

V.M.Mishin fikricha esa, “Boshqarish mexanizmi deganda, maqsadga erishish uchun tizim elementlarining muvofiqlashtirilgan, o‘zaro bog‘langan o‘zaro ta’siriga yordam beradigan tashkiliy va iqtisodiy boshqaruv usullari to‘plami tushuniladi”⁹.

Bizning fikrimizcha esa, “Boshqaruv mexanizmi” deganda biror-bir maqsadga erishish uchun insonlarga ta’sir ko‘rsatadigan usullar majmui, ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish uchun mo‘ljallangan qurilmalar tushuniladi. Demak, boshqaruv mexanizmi maqsadlarga erishishda tashkilotning samarali o‘zaro ta’siri va ishlashini ta’minlash uchun zarur chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirishga qaratilgan. Boshqaruvning iqtisodiy hamda tashkiliy va institutsional mexanizmlarini farqlashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сайфуллина С.Ф. Проблемы инновационного развития российских предприятий // Успехи современного естествознания. -2010. -№3. С. 171–173. <https://админ.авсэ.рф/Files/ArticleFiles/9fd8c30b-02ec-4a1a-b9e7-55e59e9c2962.pdf>

2. Р.А.Фатхудинов. «Инновационный менеджмент: Классификация, структуры и отличительные черты инновационных организаций; Экономические законы, законы организации, научные подходы и принципы и др.»: Учебник для

5 Лафта Д.К. Управленческие решения: Учебное пособие для студентов вузов. -М.: Благовест-В, 2004. -301 с.

6 М.И.Самогородская. Организация и планирование предприятия. Учебное пособие. -Воронеж: ВГТУ. Ч.1. -2017. -225 с.

7 Организационно экономический механизм управления регионом: формирование, функционирование, развитие: монография / Р.Г.Маннапов, Л.Г.Ахтариева. -М.: КНОРУС, 2008. -352 с.

8 Новокшонова Л.В., Трифонов Й.В. Мировое хозяйство: Учебное пособие. 2000 г., -312 с.

9 Мишин В.М. Управление качеством: Учеб, пособие для вузов. -М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2000. -303 с.

вузов Изд. 5-е, испр., доп. «Питер», 2010. -188 с.

3. Мокеева А.Е. Проблемы современной экономики [Электронный ресурс] / А.Е.Мокеева. -Режим доступа: http://www.projects.innovbusiness.ru/content/document_r_3F2EA70B-28B5-45F9-9288-BE47EEE102B8.html

4. Г.Ш.Хонкелдиева, Перспективные направления инновационного развития текстильной промышленности республики Узбекистан. https://elar.rsvpu.ru/bitstream/123456789/39178/1/avsorpo_2020_4_005.pdf

5. Никонова Й.И. Инновационная политика развития экономических систем: методология формирования и механизм реализации [Текст]: Монография / Й.И.Никонина. -Барнаул: ИГ «Си-Пресс», 2014. -171 с.

6. Виханский О.С. Менеджмент / О.С.Виханский. -М.: Гардарики, 2017. -528 с.

7. Фетисова А.В. Инструменты формирования стратегии организации. Журнал. Аграрное образование и наука. 2017. №3. <https://cyberleninka.ru/article/n/instrumenty-formirovaniya-strategii-organizatsii/viewer>

8. Лафта Д.К. Управленческие решения: Учебное пособие для студентов вузов. -М.: Благовест-В, 2004. -301 с.

9. М.И.Самогородская. Организация и планирование предприятия. Учебное пособие. -Воронеж: ВГТУ. Ч.1. -2017. -225 с.

10. Организационно экономический механизм управления регионом: формирование, функционирование, развитие: монография / Р.Г.Маннапов, Л.Г.Ахтариева. -М.: КНОРУС, 2008. -352 с.

11. Новокшенова Л.В., Трифонов Й.В. Мировое хозяйство: Учебное пособие. 2000 г., -312 с.

12. Мишин В.М. Управление качеством: Учеб, пособие для вузов. -М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2000. -303 с.

**Ўзбекистонда ёшлар ижтимоий фаоллигини оширишда таълим
ислохотларининг тарихий ва амалий аҳамияти**

**Роль и влияние реформ системы образования в обеспечении социальной
активности молодежи в Узбекистане**

**The Role and Impact of Educational Reforms in Enhancing Youth Social
Engagement in Uzbekistan**

Қодиров Нажмиддин Неъматович

Халқаро Нордик университети

Ижтимоий фанлар ва журналистика кафедраси мудири

Тарих фанлари номзоди, доцент

E-mail: n.qodirov@nordicuniversity.org

Ўтанов Нормўмин Аллаярович

Тошкент давлат юридик университети

хузуридаги Академик лицейи кафедраси ўқитувчиси

E-mail: normuminutanov@gmail.com

Аннотация

Мазкур мақолада Ўзбекистонда ёшлар ижтимоий фаоллигини ошириш, мамлакатдаги ижтимоий-иқтисодий жараёнлардаги фаол иштирокини оширишнинг муҳим омили сифатида таълим тизимини ислохотини амалий аҳамияти тарихий мисоллар асосида таҳлил қилиниб, республика раҳбарияти томонидан амалга оширилган ислохотларнинг ижобий натижалари архив материаллари ёрдамида намоён этилади.

Аннотация

В данной статье анализируется практическое значение реформ в системе образования Узбекистана как ключевого фактора повышения социальной активности молодежи и их активного участия в социально-экономических процессах страны. Позитивные результаты реформ, реализованных руководством республики, демонстрируются на основе архивных материалов и исторических примеров.

Abstract

This article examines the practical significance of educational system reforms in Uzbekistan as a critical factor in enhancing youth social engagement and their active

participation in the country's socio-economic processes. The positive outcomes of the reforms implemented by the republic's leadership are illustrated through archival materials and historical examples.

Калит сўзлар: таълим тизими, ахлоқий малака, ёшлар бандлиги, вояга етмаганлар, касб ҳунар, олий таълим.

Ключевые слова: система образования, моральные компетенции, занятость молодежи, несовершеннолетние, профессиональные навыки, высшее образование.

Key words: education system, moral competencies, youth employment, minors, professional skills, higher education.

Кириш

Ўтган асрнинг 90-йилларида Ўзбекистон халқи бошқа постсовет давлатлари аҳолиси қаторида ўзига хос ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий ўзгаришларни бошдан кечирди. Тарихий шарт-шароитлар ёшлар масаласини ислохотларнинг устувор йўналиши сифатида гавдаланишига сабаб бўлса-да, мавжуд иқтисодий ва сиёсий вазият ушбу соҳага етарлича куч ва имкониятларни сафарбар этиш имкониятини яратмади. Лекин, шунга қарамасдан, ёшлар ижтимоий фаоллигини оширишда давр талаблари ва белгиланган сиёсий, ижтимоий ва иқтисодий мақсадларга эришиш учун йўналтирилган тартибда ривожланишлари учун шарт-шароитлар яратилишига кўп эътибор қаратилди.

Дастлаб, совет жамияти парчалангандан сўнг Ўзбекистонда янгича фуқаролик демократик жамият асосларини яратиш йўлидан бориб, жамиятда ёшлар ижтимоий фаоллигини оширишга қаратилган ижтимоий-сиёсий институтлар фаолиятини йўлга қўйишга қаратилган ҳуқуқий ва меъёрий асослар яратилди. Мустақил тараққиётнинг дастлабки йилларида яратилган ҳуқуқий-меъёрий асослар тезликда такомиллашган ва соҳанинг барча жиҳатларини ўзида мужассам этган механизмни яратиш учун етарли бўлмаса-да, кўзланган мақсадларнинг асосий ғояларини ўзида акс эттирган таянч пойдеворни яратишга хизмат қилди. Хусусан, ёшларнинг жамиятдаги ўрни ва давлат ривожига ролини аниқлаш ҳуқуқий жиҳатдан белгиланди. Иккинчидан, ёшлар ташкилотлари ва уларнинг фаолият юритишлари учун зарур бўлган давлат ва нодавлат ташкилотлар тузилиши ёки унинг учун шароит яратилиши, давлат томонидан ёшлар ҳуқуқ ва манфаатларини кафолатлари белгиланиши, ёшлар ижтимоий фаоллигини ошириш борасида ташкилатлараро, давлат ва нодавлат ташкилотлар ўртасидаги муносабатларни тартибга солувчи, уларнинг ваколатлари ва мажбуриятларининг умумий ва базавий меъёрларини белгилаб берилиши муҳим қадам бўлди. Айниқса, ушбу муносабатлар тизимини ва яхлит механизмни шаклланишида ғоявий жиҳатларнинг аниқ белгиланиши дастлабки йиллардаги ислохотларнинг ҳал қилувчи ва аҳамиятли хусусиятини ўзида акс эттирди.

Асосий қисм

Бундан келиб чиққан ҳолда, 1990 йилларнинг ўрталаридан бошлаб, ёшлар ижтимоий фаоллигини ошириш мақсадида давлат ташаббуслари ва ҳуқуқий меъёрларнинг такомиллаштирилиши истиқлол даврида вужудга келтирилган механизмларни такомиллашуви, яхлит тизим сифатида фаолият юритишлари учун зарурий бўлган меъёрий ва институционал инструментларни яратилиши ҳамда ишга туширилиши бўлди.

Дастлабки энг зарур соҳа бўлган таълим – мамлакат ижтимоий-иқтисодий, сиёсий, ғоявий, маданий ҳаётининг муҳим тармоғи деб белгиланди. Шунинг учун ҳам 1992 йилги Қонуннинг асосий вазифаларидан бири собиқ иттифок мафкурасидан ҳалос бўлиш ва унинг ўрнини янги дунёқараш билан тўлдириш ҳамда жаҳон андозаларига асосланган таълим тизимини яратишдан иборат эди¹.

Истиқлолнинг дастлабки йилларида ёшлар ижтимоий ҳаётида бир қатор ижобий тенденциялар кузатилди. Эндиликда эскича фикрлаш ва фаолият олиб бориш юкидан холи бўлган янгича дунёқарашга эга ёшлар вояга етди, таълим тизимининг барча босқичларида ёшларга билим беришнинг, маънавий, ахлоқий ва касб малакаси бўйича тарбиялашнинг мутлақо янги тизими жорий этила бошланди, мамлакат ижтимоий-сиёсий ҳаётида янгича фуқаролик жамияти ва демократия институтлари фаолияти, ёшларнинг иш билан бандлиги ва улар меҳнатидан унумли фойдаланиш масаласи, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш натижасида ёшларга янги иш ўринларини ташкил этишда самарали механизмлар ишга туширилди.

Муҳокама

Ўзбекистонда ёшлар ижтимоий фаоллигини оширишда таълим олиш имконияти юқори савияда ташкил этилганлиги омили устуворлик аҳамиятга эга бўлиб қолаверди. Ёшларга касб ўргатиш, замонавий касб малакаларини эгаллашлари учун шароит яратилганлиги уларни ижтимоий фаоллигини оширишда муҳим омил бўлди.

Мактаб таълимини ривожига аҳоли сони ўсиши динамикаси билан мос тарзда ривожланди. 1990 йилда дарсликлар таъминоти 55,4 фоиз бўлган бўлса 2011 йилда 100 фоизга кўтарилди. Бироқ, замонавий компьютер ўқув хоналари билан таъминлаш 76 фоиз, замонавий лаборатория жиҳозлари билан таъминланганлик 81,2 фоиз бўлиб², бу кўрсаткичлар 2011 йил учун паст кўрсаткич эди.

Республика ҳудудлари бўйлаб мактабларга, ўқитувчи-мураббийларга моддий ва маънавий рағбатлантиришлар, ижтимоий ёрдам бериш масалаларига эътибор қаратилди. Янги ихтисосликлар, мутахассисликлар, олий ўқув юртлари ташкил этилди. Президент Фармони билан 8 та вилоят педагогика институтларига

1 Ўзбекистон Республикаси «Таълим тўғрисида»ги Қонуни. [637-XII-сон 02.07.1992. «Таълим тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунини амалга киритиш тартиби тўғрисида.](#)

2 Статистик тўплам. Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий тараққиётининг мустақиллик йилларидаги (1990-2011 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2012-2015 йилларга мўлжалланган прогнозлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013. – 90-91 бетлар.

университет мақоми берилди³.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1992 йил 28 августдаги “Ўзбекистоннинг ёш ижодкорларини давлат йўли билан қўллаб-қувватлаш чораларитўғрисида”ги 461-сонли Фармони⁴ асосида 1992-1993 ўқув йилида мактаб ўқувчиларининг умумтаълим фанлари бўйича Республика фан олимпиадалари ўтказилди. Умумтаълим фанлари бўйича республика олимпиадасида 1428 та ўқувчи иштирок этиб, шунда 128 таси ғолиб бўлди ва фахрли ўринларни эгалладилар⁵. 1993 йил 5 февралдаги “Ўзбекистон ўқувчи ёшларини рағбатлантириш чоратadbирлари тўғрисида”ги Президент фармони ўқишда аъло натижалар кўрсатган олий ўқув юртларининг талабалари учун давлат стипендияларини таъсис этиш масалаларини тартибга солиди⁶. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўқувчи ёшларни мукофатлаш ва моддий рағбатлантириш тўғрисида” 1993 йил 25 мартдаги 157-сонли қарори⁷ натижасида эса Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги олий таълим муассасаларининг талабалари ва аспирантларини мукофатлашга, моддий рағбатлантиришга алоҳида эътибор қаратилди.

2001 йилда ёшларни бўш вақтларини мазмунли ташкил этиш бўйича қатор камчиликлар аниқланди. Тошкент вилоятида мактабдан ташқари таълим муассасаларидаги тўғаракларга 15% гина ўқувчилар жалб этилган. Тошкент шаҳрида эса 93196 нафар ёшлар бундай қамровдан четда қолган⁸. Мактабдан ташқари таълим муассасаларининг моддий-техник базаси ҳам талаба даражасида эмасди. Тошкент вилоятида 3 та болалар ва ўсмирлар спорт мактаби фаолият юритиб, уларга атиги 1062 нафар ўқувчи жалб этилган. Мактаблар қошидаги 3264 та спорт тўғаракларига ўқувчиларни жалб этиш 11,5 фоизни ташкил этган⁹.

Мазкур ҳолат бутун республика бўйлаб вояга етмаганлар ишлари бўйича ҳолатни танқидий ўрганиш ва салбий ҳолатларни бартараф этиш бўйича самарали чораларни кўриш бўйича амалий ҳаракатларни бошланиши бўлди¹⁰.

Вужудга келган бу каби ҳолат республика раҳбарияти томонидан ёшлар

3 Жўраев Н., Файзуллаев Т. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 3-китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 416.

4 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1992 йил 28 августдаги “Ўзбекистоннинг ёш ижодкорларини давлат йўли билан қўллаб-қувватлаш чоралари тўғрисида”ги 461-сонли Фармони. <https://lex.uz/ru/docs/168900>.

5 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1993 йил 5 февралдаги “Ўзбекистоннинг ўқувчи ёшларини рағбатлантириш чоралари тўғрисида”ги ПФ-555-сонли Фармони. <https://lex.uz/docs/189598>.

6 Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўқувчи ёшларни мукофатлаш ва моддий рағбатлантириш тўғрисида” 1993 йил 25 мартдаги 157-сонли қарори. <https://api.ziyonet.uz/uploads/books/652/5b1a5716316a3.pdf>.

7 Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўқувчи ёшларни мукофатлаш ва моддий рағбатлантириш тўғрисида” 1993 йил 25 мартдаги 157-сонли қарори. <https://lex.uz/docs/619900>.

8 Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси архиви. Фонд 975, руйхат 30. С.б. 177. – 207 бет.

9 Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси архиви. Фонд 975, руйхат 30. С.б. 177. – 208 бет.

10 Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси архиви. Фонд 975, руйхат 30. С.б. 177. – 239-242 бетлар

таълим-тарбияси тизимни такомиллаштириш борасида ишларни янада кучайтириш, кўпроқ ресурсларни шусоҳанияхшилашга йўналтиришга тўртки берди. Қорақалпоғистон Республикаси ва барча вилоятларда ўсмирлар ва ёшлар орасида бўш вақтларни мазмунли ўтказишларини ташкил этиш, улар орасида жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликларни кўпайишини олдини олиш бўйича маҳалла, оила, таълим муассасасини Ички ишлар органлари билан ҳамкорлигида чора-тадбирлар ишлаб чиқилди¹¹.

2006 йилга келиб, ишлаб чиқаришдан ажралган ҳолда таҳсил олувчи 16 ёшли ва ундан катта ёшдагиларнинг сони 1995-2006 йиллар мобайнида 601,6 минг кишига (1,7 барабар) кўпайиб, меҳнат ресурслари таркибида уларнинг улуши 1995 йилдаги 7,7 фоиздан 2006 йилда 9,9 фоизгача ошган¹². 1997-2007 йиллар давомида олий ва ўрта махсус касб-хунар таълими тизимида 100 дан ортиқ йўналиш, 265 та мутахассислик ва 700 та касб бўйича бир миллиондан ортиқ мутахассислар тайёрланган¹³. Лекин шунга қарамасдан, меҳнатга лаёқатлик ёшига етганлар ишга жойлашишга муҳтожлар таркибида катта қисмни ташкил этган. Хусусан, 2007 йилда Тошкентдаги маҳаллаларда ишга жойлашишга муҳтож бўлган аниқланган фуқароларнинг 95,7 фоизини ёшлар ташкил этган¹⁴.

2010 йиллар ўрталарида ҳам республикада ёшларни таълим олишлари ва касб эгаллашлари имконияти таққослама ҳолатда юқори кўрсаткичларни намоянча этмади. Мисол учун, Мустақил давлатлар ҳамдустлиги таҳлилларига кўра Ўзбекистонда 2015/2016 ўқув йилида ҳар 1000 кишига 29 нафар олий таълим талабаси ва 164 нафар ўрта махсус таълим муассасаси ўқувчилари тўғри келган. Бу кўрсаткич бўйича МДҲ давлатлари орасида Ўзбекистон сўнгги ўринларда¹⁵ қайд этилган. Яъни, мавжуд таълим ва тарбия тизимини давр талабларига мос равишда мазмунан такомиллаштириш зарурий вазифалар қаторига кўтарилиб ўлгурган эди. Бир сўз билан айтганда, йил-сайин аҳоли таркибидан ёшлар улушини фоизларда ортиб бориши, бу борада аниқ механизмларни яратиш ва зарур инфраструктурани барпо этишни кун тартибидаги долзарб масалага айлантирди.

Натижа

2024 йилда мактабгача таълим соҳасида 4,644 та боғча фаолият кўрсатган ва 170,310 ўрин яратилган. Қамров даражаси 76% ни ташкил этган. Бу кўрсат-

11 Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси архиви. Фонд 975, руйхат 30. С.б. 177. – 239-287 бетлар

12 Ўша жойда.

13 Каримов И.А. Инсон манфаатлари устуворлигини таъминлаш - барча ислохотлар ва ўзгаришларимизнинг бош мақсадидир- Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг 2007 йилда мамлакатни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2008 йилда иқтисодий ислохотларни чуқурлаштиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамаси мажлисидаги маърузаси. Халқ сўзи. 2008 йил 9 февраль.

14 Қаюмов Ў.К. Фуқаролик жамиятининг шаклланиши шароитида Ўзбекистон ёшларининг ижтимоийлашув жараёнлари. Масъул муҳаррир: А.Ж.Холбеков – Тошкент: “Ижтимоий фикр” жамоатчилик фикрини ўрганиш Маркази, 2011. – 40 бет.

15 Молодежь в Содружестве Независимых Государств и Цели Устойчивого Развития / Статкомитет СНГ, ЮНФПА. М. 2021. – стр. 20.

кичлар ёшлар таълим тизимидаги янги имкониятларни кўрсатади¹⁶.

2024/2025 ўқув йилида олий таълим соҳасида 18-23 ёшдагилар учун қамров 47.7% ни ташкил этган. Олий таълим муассасаларини битирган ёшлар сони 211,2 минг нафарни ташкил этган. Давлат грантлари ва давлат буюртмаси квоталари орқали ёшларга таълим имкониятлари кенгайтирилмоқда¹⁷.

2017-2024 йилларда ёшларни қўллаб-қувватлаш, уларни истеъдод ва салоҳиятини рўёбга чиқаришда “катта сакраш даври” бўлди. Шу етти йил ичида ёшларга оид 100 дан зиёд қонун ва қарор қабул қилиниб, 200 дан ортиқ имтиёз берилди.

Биргина таълим кредитидан 151 минг ёшлар фойдаланди. Эҳтиёжманд оиладан бўлган яна 110 минг талабанинг контрактини тўлашга 332 миллиард сўм ажратилди. Натижада олий таълимда қамров 9 фоиздан 42 фоизга, олийгоҳлар сони эса 77 тадан 212 тага етди. 110 минг нафар ўғил-қизлар хорижда таҳсил олди. “Эл-юрт умиди” жамғармаси орқали АҚШнинг “Печак лигаси”га кирувчи Гарвард, Йель, Колумбия, Стенфорд каби топ-8 та, Буюк Британиянинг “Расселл гуруҳи”даги Оксфорд, Кэмбридж, Бирмингем каби 24 та олийгоҳни 50 нафар ёшларимиз битирди. Бу нуфузли олийгоҳларда ўқиётган ўзбекистонлик ёшлар сони 200 дан ошди. 2024 йилда мактабларни 14 мингдан зиёд ўқувчи олтин ва кумуш медаллар билан битирди. Мактаб ўқувчилари “Катта бешлик” фан олимпиадаларида қўлга киритган медаллар охириги тўрт йилда 2 карра кўпайди¹⁸.

Ўз навбатида, мамлакатимиз жадал ривожланиши учун “тўртинчи саноат инқилоби” касблари жуда муҳимлигини инобатга олган ҳолда, ёшларнинг физика, кимё, биология, технология, муҳандислик, математика билан боғлиқ касбларга қизиқишини ошириш учун янги тизим жорий қилинди.

Хулоса

Ёшлар ижтимоий фаоллиги масаласи мамлакат мустақил тараққиёт даврининг дастлабки йилларида жиддий ташкил этиш ва тизимлаштириш ҳаракатларини талаб этган соҳа бўлди. Дастлабки йилларда қабул қилинган бир қонун ва қонуности меъёрий хўжжатлар қабул қилиниши билан давлат томонидан ёшлар ижтимоий фаоллигини ошириш борасида давлат ташкилотлари, нодавлат нотижорат ташкилот ва фуқаролик жамиятининг бошқа институтлари ҳамда кенг жамоатчилик томонидан амалга оширилиши лозим бўлган муҳим ва устувор вазифалар белгилаб олинди.

Бироқ, мустақил ривожининг дастлабки ўн йиллиги давомида бу борада асосий ташаббус давлат ташкилотлари томонидан амалга оширилди. Бу даврда мамлакат ёшлари орасида нисбатан пасивлик кўзатилди. Бунга аввалги тузумнинг парчаланиши ва эндиликда янги реаллик ҳолатида адаптацион давр

16 Ўзбекистон Республикаси Мактабгача ва Мактаб таълими вазирлиги: <https://uzedu.uz/y3/lists/4/284>.

17 Edujournal.uz: <https://edujournal.uz/wp-content/uploads/2024/06/Ozbekistonda-oliy-talim-2024-yil-1-soni.pdf>.

18 Мирзо . Ёшлар – Янги Ўзбекистон бунёдкорлари. [Ёшлар – Янги Ўзбекистон Бунёдкорлари](#).

сабаб бўлган бўлса, иккинчи томондан, республикаа ёшлари олдида жахон микёсида фаолият юритиш, дунё илм-фани ютуқларидан тусиқларсиз фойдаланиш имкониятларининг вужудга келганлиги улардан янги билим ва кўникмаларни изчилликда ўзлаштириш вазифасини намоён этди. Ва, албатта, янги воқеликларга мослашиш ёшлар олдида ўзига хос қийинчиликларни келтириб чиқарди.

Умуман олганда Ўзбекистонда ёшлар ижтимоий фаоллигини ошириш механизмларининг ташкилий-ҳуқуқий асослари, уни амалга оширишнинг ўзига хос механизмлари ва технологиялари ишлаб чиқилиб, ўз даврида етарли даражада такомиллаштирилиб борилди. Бироқ, ёшларнинг фаол бўлмаган қисми билан олиб бориладиган ишлар кўлами ва фаолият шакллари ҳали тўлиқ шакллантирилмаган эди. Бу вақтга келиб уюшмаган ёшларнинг ҳуқуқий мақоми белгиланмаганлиги ва улар билан ишлаш механизмлари шаклланмаганлиги¹⁹ илмий таҳлилларда акс этди. Шу нуқтаи назардан, ушбу гуруҳ ёшлар билан ишлашнинг механизмлари ёшлар ташкилотлари ва ёшлар ижтимоий фаоллигини оширишда иштирок этувчи давлат ва фуқаролик жамияти институтлари фаолиятида назарда тўтилмаганлиги ҳақида қарашлар ҳам илмий доираларда кўзга ташлана бошлади. Бу жиҳат бир томондан, ёшлар ижтимоий фаоллигини оширишда илмий асосланган янги босқични бошланиши бўлса, иккинчи томондан, соҳада мутасадди бўлган тизимларни фаолият шакл ва усулларини такомиллаштириш заруратини англата бошлади.

Ёш авлодга кўрсатилаётган ғамхўрлик, аввало, уларнинг мамлакатнинг асосий таянчи ва келажақдаги тараққиётнинг давомчилари сифатидаги аҳамиятига асосланади. Шу нуқтаи назардан, ёшлар масаласи бўйича қонунчиликни замон талабларига мослаштириш, ҳуқуқий ҳамда ташкилий-иқтисодий имкониятларни яратиш, уларнинг касб-ҳунарга эғалиги, меҳнат фаолияти ва эркин ижодий ташаббуслари учун барча шарт-шароитларни таъминлаш давлат сиёсатида устувор йўналиш сифатида қаралади.

Давлатнинг тарихий тараққиёт йўли шундан далолат берадики, мамлакатнинг барқарор ривожланиши, муайян ютуқларга эришиши ва аҳолининг фаровонлиги, асосан, ёшлар таълими ва тарбиясига қаратилган эътиборнинг даражасига бевосита боғлиқ. Шунингдек, ёшлар жамиятнинг фаол қатлами ва давлатнинг стратегик ресурси сифатида эътироф этилиб, мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишига катта ҳисса қўшади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 15 январдаги «Оммавий ахборот воситалари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида»ги ЎРҚ-78-сонли қонуни. <https://lex.uz/docs/1106870>.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1992 йил 28 августдаги “Ўзбекистоннинг ёш ижодкорларини давлат йўли билан қўллаб-қувватлаш чоралари тўғрисида”ги 461-сонли Фармони. <https://lex.uz/ru/docs/168900>.

¹⁹ Муродов А. Уюшмаган ёшлар тушунчаси ва унинг криминологик тавсифи. [Мақола тушунча.pdf](#).

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1993 йил 5 февралдаги “Ўзбекистоннинг ўқувчи ёшларини рағбатлантириш чоралари тўғрисида”ги ПФ-555-сонли Фармони. <https://lex.uz/docs/189598>.
4. ПФ-461-сон 28.08.1992. Ўзбекистон ижодкор ёшларини давлат йўли билан қўллаб-қувватлаш чоралари тўғрисида (lex.uz).
1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўқувчи ёшларни мукофатлаш ва моддий рағбатлантириш тўғрисида” 1993 йил 25 мартдаги 157-сонли қарори. <https://api.ziyonet.uz/uploads/books/652/5b1a5716316a3.pdf>.
2. “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш Концепция”сини фаол амалга оширишда Жамоат фонди ва Парламент комиссияси фаолияти график ва статистик рақамларда. – Тошкент: “ART FLEX”, 2015. – Б. 20.
3. Edujournal.uz: <https://edujournal.uz/wp-content/uploads/2024/06/Ozbekistonda-oliy-talim-2024-yil-1-soni.pdf>.
4. Каримов И.А. Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – Б. 74-75.
5. Каримов И.А. Ватанимизнинг босқичма-босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш-бизнинг олий мақсадимиз. 17-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. – Б.159.
6. Каримов И.А. Инсон манфаатлари устуворлигини таъминлаш - барча ислохотлар ва ўзгаришларимизнинг бош мақсадидир- Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг 2007 йилда мамлакатни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш яқунлари ва 2008 йилда иқтисодий ислохотларни чуқурлаштиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамаси мажлисидаги маърузаси. Халқ сўзи. 2008 йил 9 февраль.
7. Каримов И.А. Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг 20 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги табрик нутқи. // Халқ сўзи, 2011, 1 сентябрь.
8. Қажумов Ў.К. Фуқаролик жамиятининг шаклланиши шароитида Ўзбекистон ёшларининг ижтимоийлашув жараёнлари. Масъул муҳаррир: А.Ж.Холбеков – Тошкент: “Ижтимоий фикр” жоматчилик фикрини ўрганиш Маркази, 2011. – 40 бет.
9. Мирзо Ғ. Ёшлар – Янги Ўзбекистон бунёдкорлари. [Ёшлар – Янги Ўзбекистон Бунёдкорлари](#).
10. Молодежь в Содружестве Независимых Государств и Цели Устойчивого Развития / Статкомитет СНГ, ЮНФПА. М. 2021. – стр. 20.
11. Молодежь Центральной Азии. Вызовы миростроительству. Комплексный исследовательский обзор. Опубликовано Организацией Объединенных Наций по вопросам образования, науки и культуры. UNESCO 2022. – стр. 146-147.
12. Мужчины и женщины Узбекистана. Статистический сборник. – Ташкент, 2007.
13. Муродов А. Уюшмаган ёшлар тушунчаси ва унинг криминологик тавсифи. [Макола_тушунча.pdf](#).
14. Народонаселение мира в 2006 г, Миграция молодежи. Издание UNFPA, 2007. <https://www.un.org/ru/development/surveys/docs/population2006.pdf?ysclid=mb7qn0w8jv707593207>.
15. Рейтинг стран мира по Индексу человеческого капитала. <https://gtmarket.ru/ratings/human-capital-index>.

16. Статистик тўплам. Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий тараққиётининг мустақиллик йилларидаги (1990-2011 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2012-2015 йилларга мўлжалланган прогнозлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013. – 90-91 бетлар.
17. Топилдиев О.Р. Ўзбекистоннинг ижтимоий-сиёсий ҳаётида ёшларнинг тутган ўрни (1991-2008 йй.). Тарих фанлари номз. диссерт. автореферати. – Тошкент – 2011.
18. Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика Қўмитасининг жорий архиви. 1991-2008 йил маълумотлари. [http:// www. stat.uz](http://www.stat.uz).
19. Ўзбекистон Республикаси Мактабгача ва Мактаб таълими вазирлиги: <https://uzedu.uz/y3/lists/4/284>.
20. Ўзбекистон Республикаси меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирлиги жорий архиви. 2008 йил ҳисоботлари. – Б. 53.
21. Ўзбекистон Республикаси Олий ва Ўрта махсус таълим вазирлиги жорий архиви. Маънавий-ахлоқий тарбия бошқармасининг 1993-2008 йил ҳисоботлари;
22. Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси архиви. Фонд 975, руйхат 30. С.б. 109. – 194-195, 177, 206-208, 211-212, 239-242, 239-287 бетлар.
23. ЎзР МДА, фонд М-168, руйхат 1, с.б. 52, 33-34 бетлар.
24. ЎзР МДА, фонд М-69, руйхат 1, с.б. 105, 127-129 бетлар.
25. ЎзР МДА. М-7- фонд, 1- рўйхат, 1- йиғма жилд, 33, 43 - варақлар.

ПРЕДОПЕРАЦИОННАЯ ОЦЕНКА И РАННЕЕ ВЕДЕНИЕ НОВОРОЖДЁННЫХ СО СПИННОМОЗГОВОЙ ГРЫЖЕЙ (SPINA BIFIDA): СОВРЕМЕННЫЙ АЛГОРИТМ И ФАКТОРЫ, ОПРЕДЕЛЯЮЩИЕ ПРОГНОЗ

Арсланова Зера Энверовна
arslanovazera@gmail.com
Игорь Александрович Югай
yia01@mail.ru.

«Alfraganus University» — Негосударственное высшее образовательное учреждение, кафедра клинических дисциплин медицинского факультета Республиканский специализированный научно-практический медицинский центр нейрохирургии

Аннотация: Долгосрочный прогноз у пациентов со спинномозговой грыжей (spina bifida) в значительной степени определяется качеством предоперационной оценки и сроками хирургического вмешательства. Быстрая и эффективная междисциплинарная консультация, включающая всестороннее обследование всех систем организма, является ключевым условием своевременного выявления и коррекции факторов, способных привести к летальному исходу и развитию осложнений. Ранняя диагностика и оптимизация состояния пациента перед операцией существенно снижают риск смертности и заболеваемости, обеспечивая более благоприятный клинический исход.

Ключевые слова: спинальный дизрафизм, предоперационная подготовка, младенец, новорожденный.

Preoperative assessment and early management of neonates with spina bifida: a modern algorithm and factors determining the prognosis

Arslanova Zera Enverovna
Email: arslanovazera @gmail.com
Igor Alexandrovich Yugay
yia01@mail.ru.

“Alfraganus University” is a non-governmental higher educational institution, the Department of Clinical Disciplines of the Faculty of Medicine

Republican Specialized Scientific and Practical Medical Center of Neurosurgery

